

18 iyun 2026 yil.

03/32-32/15bn-son

“TASDIQLAYMAN”

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
direktori o‘rinbosari



_____A.Miraliyev

2026yil “17”_iyun

**Tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan, davlat ko‘chmas mulki obyektlari
bilan bog‘liq imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish samaradorligini
baholash**

METODOLOGIYASI

I. UMUMIY QOIDALAR

1. Ushbu Metodologiya tadbirkorlik subyektlariga taqdim etilgan davlat ko‘chmas mulki obyektlari bilan bog‘liq imtiyoz va preferensiyalardan (bundan buyon matnda - qo‘llab-quvvatlash choralari) foydalanish samaradorligini monitoring qilish va baholash tartibini belgilaydi.

2. Metodologiya davlat ko‘chmas mulki obyektlarini ijaraga berish, tekin foydalanish va xususiylashtirish xususiyatlarini hisobga olgan holda, subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar samaradorligini baholashning umumiy tartibini qo‘llash maqsadida ishlab chiqilgan.

3. Har bir qo‘llab-quvvatlash chorasiga uchun qo‘llaniladigan qonunchilik hujjati va shartnomada belgilangan shartlar, muddatlar, cheklovlar hamda qo‘llanilmaydigan holatlar inobatga olinadi.

II. NORMATIV-HUQUQIY ASOS VA QO‘LLANILISH SOHASI

4. Ushbu Metodologiya quyidagi normativ-huquqiy hujjatlarga muvofiq va ularning yuridik kuchini hisobga olgan holda ishlab chiqilgan:

O‘zbekiston Respublikasining 2021-yil 20-apreldagi “Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risida”gi O‘RQ-682-son Qonuni;

O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 9-martdagi “Davlat mulkini boshqarish to‘g‘risida”gi O‘RQ-821-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasining 2024-yil 14-fevraldagi "Davlat mulkini xususiylashtirish to'g'risida"gi O'RQ-907-son Qonuni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi "Tadbirkorlik subyektlariga subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar taqdim etish tartib-taomillarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-193-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning differensial tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-aprelda "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi PF-70-son Farmoni;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 6-oktyabrda "Davlat mulki obyektlarini xususiylashtirish tartibi to'g'risidagi nizomlarni tasdiqlash haqida"gi 279-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2023-yil 14-dekabrda "Davlat mulkini ijaraga berish tartibini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 660-son qarori;

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-dekabrda "Tadbirkorlik subyektlariga beriladigan subsidiya, imtiyoz va preferensiyalardan foydalanish samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 784-son qarori va ushbu qarorga 1-ilova bilan tasdiqlangan Nizom;

davlat ko'chmas mulki obyektlari bilan bog'liq qo'llab-quvvatlash choralari nazarda tutuvchi boshqa qonunchilik hujjatlari.

5. Metodologiya O'zbekiston Respublikasi Davlat aktivlarini boshqarish agentligi mas'ul organ etib belgilangan qo'llab-quvvatlash choralari, shuningdek davlat ko'chmas mulki obyektlari bilan bog'liq bo'lgan va qo'llab-quvvatlash choralari reestriga kiritilgan boshqa choralarga nisbatan qo'llaniladi.

6. Baholash xususiyatlari ushbu Metodologiya bilan ochib beriladigan qo'llab-quvvatlash choralari quyidagilar kiradi:

sotib olinadigan davlat ko'chmas mulki obyekti qiymatini muddatidan oldin to'laganda beriladigan chegirma;

ijara shartnomasi tuzilgan kundan boshlab bir oy muddatda yillik ijara haqi kiritilganda beriladigan chegirma;

elektron onlayn-auksion savdolarida olti oy davomida ijaraga berilmagan davlat mulki obyektlarining boshlang'ich narxini 50 foizga pasaytirish;

maydoni 10 ming kvadrat metrgacha bo'lgan davlat mulki obyektlarini yuqori texnologiyali mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tadbirkorlik subyektlariga besh yil muddatga tekin foydalanishga berish, shuningdek, shartnoma shartlari bajarilganda ularni keyinchalik to'g'ridan-to'g'ri sotish;

qonunchilik hujjatlarida to'g'ridan-to'g'ri nazarda tutilgan hollarda alohida davlat ko'chmas mulki obyektlari bo'yicha boshlang'ich narxni bosqichma-bosqich pasaytirish va to'lovlarni bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan va qo'llab-quvvatlash choralari reestriga kiritilgan, davlat ko'chmas mulki obyektlari bilan bog'liq boshqa imtiyoz va preferensiyalar.

III. ASOSIY TUSHUNCHALAR VA BELGILAR

7. Ushbu Metodologiyada quyidagi asosiy tushunchalar va belgilardan foydalaniladi:

qo'llab-quvvatlash choralari — tadbirkorlik subyektlariga qonunchilik hujjatlari asosida taqdim etiladigan subsidiya, imtiyoz va preferensiyalar;

maqsadli ko'rsatkichlar — qo'llab-quvvatlash chorasi taqdim etilayotganda qonunchilik hujjati, shartnoma, kelishuv, dastur, reja-jadval yoki axborot tizimida belgilangan, baholash davrida erishilishi lozim bo'lgan iqtisodiy va ijtimoiy natijalar;

monitoring — qo'llab-quvvatlash choralaridan maqsadli va samarali foydalanilishini elektron tizimlar, idoralararo axborot almashinuvi va rasmiy ma'lumotlar asosida kuzatish;

samaradorlikni dastlabki baholash — ushbu Metodologiyada belgilangan mezonlar va formulalar asosida olingan dastlabki xulosa;

Q — baholanayotgan davrda tadbirkorlik subyektiga amalda berilgan va pul ifodasiga ega bo'lgan iqtisodiy naf;

Lz — kamaytirilgan zakalat natijasida vaqtincha bo'shatilgan likvidlik summasi.

8. **Krejai** — muayyan iqtisodiy yoki ijtimoiy ko'rsatkichning rejaviy (maqsadli) qiymati;

Kamali — shu ko'rsatkich bo'yicha amalda erishilgan qiymat;

N — hisob-kitobga kiritiladigan ko'rsatkichlar soni;

Bt — oxirgi hisobot yilida Davlat byudjeti va maqsadli jamg'armalarga tushgan soliq, bojxona va boshqa to'lovlar summasi;

Bt-1 — oxirgi hisobot yilidan oldingi hisobot yilida tushgan to'lovlar summasi;

M — baholanayotgan qo'llab-quvvatlash chorasidan foydalangan tadbirkorlik subyektlari soni.

IV. METODOLOGIYANING ASOSIY YO'NALISHLARI

9. Ushbu Metodologiya Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-dekabrda 784-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda belgilangan quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

1) qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etilishida har bir tadbirkorlik subyekti tomonidan erishilishi lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlarni belgilash;

2) taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralaridan maqsadli foydalanish va maqsadli ko'rsatkichlarga erishishni monitoring qilish;

3) qo'llab-quvvatlash choralaridan samarali foydalanishni tahlil qilish va samaradorlikni dastlabki baholash;

4) qo'llab-quvvatlash choralaridan samarasiz yoki maqsadsiz foydalangan tadbirkorlik subyektlari ro'yxatini shakllantirish;

5) asossiz olingan yoki maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni qonunchilikda belgilangan manbalarga qaytarish masalasini ko'rib chiqish.

10. Davlat ko'chmas mulki obyektlari bilan bog'liq imtiyoz va preferensiyalar xususiyatidan kelib chiqib, ushbu Metodologiyada Q miqdorini aniqlash tartibi alohida ochib beriladi. Q hisob-kitobi samaradorlikni baholashning yagona maqsadi emas; u iqtisodiy, moliyaviy va ijtimoiy natijalarni baholashda foydalaniladigan tarkibiy element hisoblanadi.

V. MAQSADLI KO'RSATKICHLARNI BELGILASH, QAYTA KO'RIB CHIQISH VA BAHOLASHDAN CHIQRISH TARTIBI

11. Maqsadli ko'rsatkichlar qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etilayotgan vaqtda belgilanadi hamda qonunchilik hujjatida, shartnomada, kelishuvda, investitsiya yoki ijtimoiy majburiyatlar dasturida, reja-jadvalda yoki qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etuvchi tashkilotning axborot tizimida aks ettiriladi.

12. Maqsadli ko'rsatkichlar aniq, o'lchanadigan, muddati belgilangan va tasdiqlovchi hujjatlar asosida tekshirish mumkin bo'lgan ko'rinishda belgilanadi. Ko'rsatkichlarni belgilashda tadbirkorlik subyekti faoliyat turi, obyektning maqsadli vazifasi, qo'llab-quvvatlash chorasining xususiyati va tadbirkorlik subyekti reyting darajasi inobatga olinadi.

13. Qo'llab-quvvatlash chorasi taqdim etilgandan keyin yangi maqsadli ko'rsatkichlarni bir tomonlama qo'shishga yo'l qo'yilmaydi. Ko'rsatkichlarga o'zgartirish kiritish faqat qonunchilik hujjati, shartnoma yoki taraflarning yozma kelishuvida nazarda tutilgan asoslar mavjud bo'lganda amalga oshiriladi.

14. Agar maqsadli ko'rsatkichning rejaviy qiymati mavjud bo'lmasa yoki uni tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmasa, mazkur ko'rsatkich formula bo'yicha hisob-kitobga kiritilmaydi. Bunday holatda ko'rsatkichni hisob-kitobdan chiqarish sababi, ma'lumotlar manbalari va tadbirkorlik subyektining tushuntirishi baholash materiallarida alohida ko'rsatiladi.

15. Tadbirkorlik subyektini baholash jarayonida qo'shimcha ma'lumotlar, hujjatlar va yozma tushuntirishlar taqdim etish, shuningdek ko'rsatkichlarni hisobga olish yoki chiqarish bo'yicha e'tiroz bildirish huquqiga ega.

VI. MONITORING VA BAHOLASHNI TASHKIL ETISHNING UMUMIY TARTIBI

16. Qo'llab-quvvatlash chorasi taqdim etilganda, uni qo'llash natijasida tadbirkorlik subyektini tomonidan erishilishi lozim bo'lgan aniq maqsadli ko'rsatkichlar belgilanadi. Ko'rsatkichlar qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etuvchi tashkilotning axborot tizimiga kiritiladi.

17. Monitoring har bir qo'llab-quvvatlash chorasi turi va mazkur qo'llab-quvvatlash chorasi taqdim etilgan har bir tadbirkorlik subyektini kesimida o'tkaziladi.

18. Baholashni o'tkazish uchun ketma-ket ravishda quyidagi harakatlar amalga oshiriladi:

1) qo'llab-quvvatlash chorasining turi va uni taqdim etish shartlari belgilangan qonunchilik hujjati aniqlanadi;

2) qo'llab-quvvatlash chorasini olgan tadbirkorlik subyektini yoki chorani qo'llash natijasi tahlil qilinayotgan ko'chmas mulk obyekti aniqlanadi;

3) baholanadigan davr belgilanadi;

4) qo'llab-quvvatlash chorasi taqdim etilganda belgilangan maqsadli iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlar aniqlanadi;

5) agar rasmiy ma'lumotlar asosida hisoblash imkoni bo'lsa, taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash chorasining pul shaklidagi miqdori Q aniqlanadi;

6) amalda erishilgan ko'rsatkichlar to'g'risidagi ma'lumotlar yig'iladi;

7) umumiy samaradorlik ko'rsatkichlari hisoblab chiqiladi;

8) mazkur qo'llab-quvvatlash chorasini qo'llashning bevosita natijalari aniqlanadi;

9) ijara, tekin foydalanish yoki oldi-sotdi shartnomasi shartlarining bajarilishi monitoring qilinadi;

10) dastlabki baholash natijalari va hisobot shakllantiriladi.

19. Samaradorlik qo'llab-quvvatlash chorasi taqdim etilishidan oldingi uch yillik davrni qo'llab-quvvatlash chorasining amal qilish muddati bilan solishtirish orqali baholanadi. Agar qo'llab-quvvatlash chorasi joriy etilgan vaqtdan boshlab uch yildan kam muddat o'tgan bo'lsa, baholash o'tgan yilga nisbatan solishtirish orqali amalga oshiriladi.

20. Samaradorlikni baholashda ma'lumotlar manbalaridan quyidagi ketma-ketlikda foydalaniladi:

tadbirkorlik subyektlarining moliyaviy va soliq hisobotlari;

tarmoq idoralari yoki statistika organlarining ma'lumotlari;

tadbirkorlik subyekti tomonidan qo'llab-quvvatlash chorasidan foydalanish natijalari bo'yicha taqdim etilgan ma'lumotlar.

21. Tarmoq ko'rsatkichlarini tasdiqlash uchun qo'shimcha ravishda qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etishning qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etish tartibida nazarda tutilgan hujjatlardan foydalaniladi: shartnomalar, axborot tizimlari ma'lumotlari, chegirmalar hisob-kitoblari, to'lov hujjatlari, elektron onlayn-auksion savdolari bayonnomalari, topshirish-qabul qilish dalolatnomalari va qo'llab-quvvatlash chorasi taqdim etilganligini hamda uning bevosita natijasini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar.

22. Monitoring qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etuvchi tashkilotning elektron tizimlari, Davlat aktivlarini boshqarish agentligining axborot tizimlari, «E-ijara» elektron tizimi, elektron onlayn-auksion savdolari ma'lumotlari, soliq va statistika ma'lumotlari hamda idoralararo axborot almashinuvi orqali amalga oshiriladi.

23. Monitoring jarayonida tadbirkorlik subyekti faoliyatini tekshirish vakolatlari avtomatik ravishda yuzaga kelmaydi. Zarur hollarda joyiga chiqqan holda o'rganish tadbirkorlik subyektlari faoliyatini tekshirish uchun belgilangan tartib doirasida, o'n kundan oshmagan muddatda o'tkazish tashabbusi kiritilganidan keyin amalga oshiriladi.

24. Monitoring, tahlil va samaradorlikni baholash o'zaro bog'liq, biroq mustaqil bosqichlar hisoblanadi. Monitoring ma'lumotlarni to'plash va kuzatishga, tahlil ushbu ma'lumotlarni solishtirishga, dastlabki baholash esa ushbu Metodologiyada belgilangan mezonlar asosida xulosa shakllantirishga qaratilgan.

VII. SAMARADORLIKNI BAHOLASH MEZONLARI VA FORMULALARI

25. Har bir tadbirkorlik subyektini uchun samaradorlikni baholash iqtisodiy, moliyaviy (byudjet) va ijtimoiy mezonlar bo'yicha alohida-alohida o'tkaziladi.

Iqtisodiy mezonlar:

mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish umumiy hajmining oshishi;

yangi turdagi mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) ishlab chiqarish hajmining oshishi;

mahsulotlarni (ishlarni, xizmatlarni) realizatsiya qilishdan olingan aylanma o'sish sur'ati;

mahsulot (ishlar, xizmatlar) turlarining kengayishi;

miqdoriy ko'rsatkichlarda yangi ixtirolar, patentlar va sanoat namunalari joriy etilishi;

miqdoriy ko'rsatkichlarda yangi texnologiyalar, uskunalar va ishlab chiqarish quvvatlarining joriy etilishi;

tadbirkorlik subyektlari daromadining (foydasining) oshishi;

mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) tannarxining pasayishi;

eksport hajmining oshishi;

shartnoma (bitim) asosida qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etishda belgilangan boshqa iqtisodiy ko'rsatkichlarning oshishi.

Moliyaviy (byudjet) mezonlari:

tadbirkorlik subyektining moliyaviy barqarorligi;

investitsiyalarni jalb qilish imkoniyatlarining kengayishi;

investitsiyalar hajmining oshishi;

byudjetga tushgan soliq va bojxona to'lovlari hajmining oshishi.

Ijtimoiy mezonlar:

yaratilgan yangi ish o'rinlari soni;

ish haqining oshishi, qo'shimcha mablag'larning yo'naltirilishi;

ijtimoiy yordamga muhtoj shaxslarni ishga joylashtirish;

mehnat sharoitlari va mehnatni muhofaza qilishning yaxshilanishi;

shartnoma asosida qo'llab-quvvatlash chorasi taqdim etilganda belgilangan boshqa ijtimoiy ko'rsatkichlar.

26. Bitta tadbirkorlik subyektini uchun qo'llab-quvvatlash chorasining iqtisodiy samaradorligi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N \quad Siqt = ((Kamal1 / Kreja1) + (Kamal2 / Kreja2) + \dots + (KamalN / KrejaN)) /$$

bunda:

Siqt - iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi;

Kreja1, Kreja2, ... KrejaN - qo'llab-quvvatlash chorasi taqdim etilganda belgilangan rejaviy iqtisodiy ko'rsatkichlar;

Kamal1, Kamal2, ... KamalN - amalda erishilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar;

N - erishilishi rejalashtirilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar soni.

27. Siqt ≥ 1 bo'lganda, qiymati 1 ga teng deb qabul qilinadi.

28. Bitta tadbirkorlik subyekti uchun qo'llab-quvvatlash chorasining moliyaviy (byudjet) samaradorligi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$Sb = (Bt - Bt-1) / Q$$

bunda:

Sb - moliyaviy (byudjet) samaradorlik ko'rsatkichi;

Bt - oxirgi hisobot yilida Davlat byudjeti va maqsadli jamg'armalarga tushgan soliq, bojxona va boshqa to'lovlarning umumiy summasi;

Bt-1 - oxirgi hisobot yilidan oldingi hisobot yilida Davlat byudjeti va maqsadli jamg'armalarga tushgan soliq, bojxona va boshqa to'lovlarning umumiy summasi;

Q - oxirgi hisobot yilida tadbirkorlik subyektiga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralarning umumiy summasi.

29. Sb ≥ 1 bo'lganda, Sb qiymati 1 ga teng deb, Sb ≤ 0 bo'lganda esa, qiymati 0 ga teng deb qabul qilinadi.

30. Bitta tadbirkorlik subyekti uchun qo'llab-quvvatlash chorasining ijtimoiy samaradorligi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$N \quad Sijt = ((Kamal1 / Kreja1) + (Kamal2 / Kreja2) + \dots + (KamalN / KrejaN)) /$$

bunda:

Sijt - ijtimoiy samaradorlik ko'rsatkichi;

Kreja1, Kreja2, ... KrejaN - qo'llab-quvvatlash chorasi taqdim etilganda belgilangan rejaviy ijtimoiy ko'rsatkichlar;

Kamal1, Kamal2, ... KamalN - amalda erishilgan ijtimoiy ko'rsatkichlar;

N - erishilishi rejalashtirilgan ijtimoiy ko'rsatkichlar soni.

31. Sijt ≥ 1 bo'lganda, qiymati 1 ga teng deb qabul qilinadi.

32. Tadbirkorlik subyektlarining biri uchun qo'llanilgan qo'llab-quvvatlash chorasi samaradorligining yakuniy ko'rsatkichi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K_s = (S_{iqt} + S_b + S_{ijt}) / 3$$

33. Tegishli qo'llab-quvvatlash chorasining umumiy samaradorligi quyidagi formula bo'yicha hisoblanadi:

$$K_{s.umum} = (K_{s1} + K_{s2} + \dots + K_{sM}) / M$$

bu yerda M - mazkur qo'llab-quvvatlash chorasidan foydalangan tadbirkorlik subyektlari soni.

34. S_{iqt} , S_b , S_{ijt} , K_s va $K_{s.umum}$ ko'rsatkichlari quyidagi shkala bo'yicha baholanadi:

Ko'rsatkich qiymati	Baho
1	qo'llab-quvvatlash chorasi yuqori samarali hisoblanadi
0,7 dan 1 dan kam bo'lgan miqdorgacha	qo'llab-quvvatlash chorasi samarali hisoblanadi
0,5 dan 0,7 dan kam bo'lgan miqdorgacha	qo'llab-quvvatlash chorasi o'rtacha samarali hisoblanadi
0,5 dan kam	qo'llab-quvvatlash chorasi samarasiz hisoblanadi

VIII. HISOB-KITOB UCHUN BOSHLANG'ICH MA'LUMOTLARNI ANIQLASH

35. Hisob-kitob uchun boshlang'ich ma'lumotlar qonunchilik hujjatlari, shartnoma, kelishuv, investitsiya yoki ijtimoiy majburiyatlar dasturi, reja-jadval, axborot tizimlari, moliyaviy va soliq hisobotlari, statistik ma'lumotlar, to'lov hujjatlari, elektron savdolar bayonnomalari va boshqa rasmiy hujjatlar asosida aniqlanadi.

36. Krejai va Kamali faqat bir xil ko'rsatkich bo'yicha, bir xil o'lchov birliklarida va solishtiriladigan davr uchun o'zaro qiyoslanadi. Bir ko'rsatkich bo'yicha ortiqcha bajarilish boshqa ko'rsatkich bo'yicha bajarilmaganlikni avtomatik ravishda qoplamaydi.

37. Hisob-kitobga qo'llab-quvvatlash chorasi taqdim etilayotganda belgilangan barcha maqsadli ko'rsatkichlar kiritiladi. Agar ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha rejaviy qiymat yoki tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lmasa, ular formuladan chiqariladi va bu haqda hisob-kitob kartochkasida sababi ko'rsatilgan holda alohida yozuv kiritiladi.

38. Agar iqtisodiy yoki ijtimoiy ko'rsatkichlar guruhi bo'yicha birorta ham maqsadli ko'rsatkich belgilanmagan bo'lsa, ushbu guruh bo'yicha formula hisoblanmaydi. Agar Q qiymati mavjud bo'lmasa yoki nolga teng bo'lsa, S_b formulasi hisoblanmaydi. Bunday holat qo'llab-quvvatlash chorasini avtomatik

tarzda samarasiz yoki maqsadsiz foydalanilgan deb baholash uchun mustaqil asos bo'lmaydi.

39. Hisob-kitobda ma'lumot mavjud bo'lmagan holatda solishtirib bo'lmaydigan yoki taxminiy qiymatlarni qo'yishga yo'l qo'yilmaydi. Ma'lumotlar yetarli bo'lmagan holatlar bo'yicha tadbirkorlik subyektiga qo'shimcha hujjat va tushuntirish taqdim etish imkoniyati beriladi.

40. Cb formulasi bo'yicha moliyaviy (byudjet) samaradorlik qo'llab-quvvatlash chorasi taqdim etilgandan keyin byudjet tushumlarining o'zgarishini tavsiflaydi. Davlat ko'chmas mulki bilan bog'liq choralari uchun ushbu ko'rsatkich obyektning xo'jalik aylanmasiga jalb etilishi, to'lovlarning o'z vaqtida tushishi va shartnoma majburiyatlari bajarilishi kabi bevosita natijalar bilan birgalikda baholanadi.

IX. DAVLAT KO'CHMAS MULK OBYEKTLARI BILAN BOG'LIQ IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNING PULDAGI MIQDORINI ANIQLASH XUSUSIYATLARI

1. Qo'llab-quvvatlash chorasi puldagi miqdorini aniqlashning umumiy qoidalari

41. Ushbu bo'lim davlat aktivlarini xususiylashtirish, yer uchastkalarini realizatsiya qilish, davlat mulkini ijaraga va tekin foydalanishga berish bilan bog'liq imtiyoz va preferensiyalarning puldagi miqdorini hisoblash xususiyatlarini aniqlaydi.

Baholashni o'tkazishda quyidagilar hisobga olinadi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi "2025-yilda xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi PF-70-son Farmoniga 6-ilovada nazarda tutilgan qo'llab-quvvatlash choralari;

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi "2025-yilda xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi PF-70-son Farmonining 6 va 8-bandlarida nazarda tutilgan qo'llab-quvvatlash choralari;

qonunchilik hujjatlarida nazarda tutilgan va davlat ko'chmas mulk obyektlari bilan bog'liq bo'lgan boshqa qo'llab-quvvatlash choralari.

42. Qo'llab-quvvatlash chorasining puldagi miqdori Q tadbirkorlik subyektiga haqiqatda taqdim etilgan, pul ko'rinishiga ega bo'lgan va baholanayotgan davrga tegishli iqtisodiy foyda sifatida aniqlanadi.

43. Quyidagilar Q sifatida avtomatik tarzda qabul qilinmaydi:

obyektning to'liq qiymati;

bitimning to'liq summasi;

bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha asosiy qarzning umumiy summasi;
to'lash muddati ko'chirilgan to'lov summasi;
zakalat miqdori;
jalb qilingan kredit summasi;
obyektning istiqboldagi bozor qiymati;
rasmiy hisob-kitob bilan tasdiqlanmagan taxminiy foyda.

44. Har bir alohida qo'llab-quvvatlash chorasi uchun Q qiymati mazkur hisob-kitob modeli bo'yicha mustaqil ravishda aniqlanadi.

Agar bitta qo'llab-quvvatlash chorasining samaradorligi baholanayotgan bo'lsa, moliyaviy samaradorlik formulasiga:

$$S_b = (B_t - B_{t-1}) / Q$$

aynan ushbu qo'llab-quvvatlash chorasining puldagi miqdori qo'yiladi.

Masalan:

muddatidan oldin to'laganlik uchun chegirmani baholashda chegirma summasidan foydalaniladi;

ijara to'lovidan ozod qilishni baholashda ijarachi ozod qilingan ijara to'lovi summasidan foydalaniladi;

foizsiz bo'lib-bo'lib to'lashni baholashda hisoblanmagan foizlar summasidan foydalaniladi;

obyektni pasaytirilgan narxda realizatsiya qilishni baholashda haqiqatda olingan narx ustunligidan foydalaniladi.

45. Agar bitta tadbirkorlik subyektiga bitta hisobot davri mobaynida haqiqatda bir nechta o'zaro mos keluvchi pul shaklidagi imtiyozlar taqdim etilgan bo'lsa, qo'llab-quvvatlash choralarining jamlangan puldagi miqdorini aniqlashga yo'l qo'yiladi:

$$Q_{sub} = Q_1 + Q_2 + \dots + Q_n,$$

bu yerda:

Q_{sub} - bitta tadbirkorlik subyektiga bir hisobot davrida haqiqatda taqdim etilgan, o'zaro mos keluvchi qo'llab-quvvatlash choralarining jamlangan puldagi miqdori;

Q_1, Q_2, \dots, Q_n - mazkur modellar bo'yicha hisoblangan alohida qo'llab-quvvatlash choralarining puldagi miqdorlari.

Q_{sub} ko'rsatkichi faqat bitta tadbirkorlik subyektiga taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash choralari majmuining umumiy bahosini o'tkazishda qo'llaniladi.

Jamlash avtomatik tarzda qo'llanilmaydi.

Quyidagilarga yo'l qo'yilmaydi:

bir vaqtning o'zida qo'llanilishi qonunchilik tomonidan taqiqlangan qo'llab-quvvatlash choralari jamlashga;

ayni bir xil pul ko'rinishidagi foydani takroran kiritishga;

turli hisobot davrlariga taalluqli bo'lgan qiymatlarni jamlashga;

bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha asosiy qarz summasini kiritishga;

kelgusi davrlarga ko'chirilgan va keyinchalik to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlarni kiritishga;

kamaytirilgan zakalat summasini kiritishga;

pul ko'rinishiga ega bo'lmagan tartib-taomil xususiyatidagi choralarni kiritishga.

2. Bazaviy hisoblash modeli

46. Qo'llab-quvvatlash chorasining puldagi miqdorini aniqlash uchun quyidagi tayanch hisob-kitob modellari qo'llaniladi:

No	Qo'llab-quvvatlash chorasini turi	Formula	Qo'llanish tartibi
1	Xarid narxidan, yer uchastkasi qiymatidan yoki yillik ijara to'lovidan beriladigan to'g'ridan-to'g'ri chegirma	$Q_{\text{chegirma}} = \text{hisoblash bazasi} \times \text{chegirma stavkasi} / 100$	Chegirma hajmi va uni hisoblash bazasi qonunchilik hujjati bilan to'g'ridan-to'g'ri belgilangan hollarda qo'llaniladi. Q sifatida obyektning to'liq qiymati yoki haqiqatda to'langan summa emas, balki chegirma summasi olinadi.
2	Obyekt yoki yer uchastkasini pasaytirilgan narxda realizatsiya qilish (sotish)	$Q_{\text{narx}} = \max(0; \text{boshlang'ich start narxi} - \text{shartnoma bo'yicha amaldagi sotish narxi})$	Faqat shartnoma tuzilgandan keyin qo'llaniladi. Savdolarga qadar boshlang'ich narxning pasaytirilishining o'zi xaridor pasayishning to'liq hajmida foyda oldi degani emas. Agar savdolar davomida narx boshlang'ich qiymatga yetgan yoki undan oshib ketgan bo'lsa, pullik ustunlik mavjud bo'lmaydi.
3	Ijara to'lovini kamaytirish yoki uni to'lashdan ozod etish	$Q_{\text{ijara}} = \text{imtiyozsiz ijara to'lovi} - \text{haqiqatda hisoblangan ijara to'lovi}$	Vaqtinchalik imtiyoz berilganda, hisob-kitob faqat baholanayotgan davr uchun amalga oshiriladi. Agar ijarachi to'lovdan to'liq ozod qilingan bo'lsa, haqiqatda hisoblangan summa nolga teng deb qabul qilinadi.

4	Davlat mulkidan tekin (bepul) foydalanish	Qtekin = baholanayotgan davr uchun umumiy tartibda hisoblanishi lozim bo'lgan rasmiy ijara to'lovi	Vakolatli tashkilotning rasmiy hisob-kitobidan foydalaniladi. Ixtiyoriy bozor bahosi qo'llanilmaydi. Agar rasmiy hisob-kitob mavjud bo'lmasa, Qtekin aniqlanmaydi.
5	Foizlardan ozod qilish, foiz stavkasini kamaytirish yoki foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish	Qfoiz = imtiyozsiz foizlar – haqiqatda hisoblangan foizlar	Faqat imtiyozsiz hisoblanishi lozim bo'lgan foizlarni aniqlash imkonini beruvchi huquqiy asoslar mavjud bo'lgandagina qo'llaniladi. Bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha asosiy qarz summasi Q ga kiritilmaydi.
6	Boshlang'ich zakalat (garov) puli miqdorini kamaytirish	Lz = umumiy stavka bo'yicha zakalat – haqiqatda belgilangan zakalat	Lz ko'rsatkichi savdo ishtirokchisi tomonidan aylanmadan vaqtinchalik chiqarilishi talab etilmaydigan pul mablag'lari summasini aks ettiradi. Lz qiymati alohida ko'rsatiladi va Q tarkibiga kiritilmaydi.
7	To'g'ridan-to'g'ri pullik nafga ega bo'lmagan protsessual qo'llab-quvvatlash chorasi	Q aniqlanmaydi	Bo'lib-bo'lib to'lash muddati, to'lovlar grafigi, garov huquqi, baholash qiymati bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri sotib olish, obyektini bo'lish, yagona ishtirokchining qatnashish imkoniyati va boshqa bevosita natijalar alohida qayd etiladi.

3. Hisoblanmagan foizlar summasini hisoblash

47. Agar qonunchilik hujjatida foizlar hisoblanishidan ozod etish, foiz stavkasini kamaytirish yoki foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish ko'zda tutilgan bo'lsa, Qfoiz qiymati rasmiy to'lovlar grafigi asosida aniqlanadi.

Bir nechta hisob-kitob davrlari mavjud bo'lganda quyidagi formula qo'llaniladi:

$$Qfoiz = \sum [Qarzdorlik\ qoldig'i_t \times \max(0; rbaz_t - ramal_t) / 100 \times D_t / B_t],$$

bunda:

Qfoiz - baholanayotgan davr uchun tadbirkorlik subyekti to'lashdan ozod etilgan foizlar summasi;

Qarzdorlik qoldig'i_t - mazkur hisob-kitob davridagi so'ndirilmagan asosiy qarz summasi;

rbaz_t - imtiyoz berilmagan taqdirda qo'llaniladigan, yillik foizlarda ifodalangan foiz stavkasi;

ramal_t - imtiyozni hisobga olgan holda amalda qo'llaniladigan, yillik foizlarda ifodalangan foiz stavkasi;

D_t - mazkur hisob-kitob davridagi kalendar kunlar soni;

B_t - mazkur yildagi kalendar kunlar soni: 365 yoki 366 kun.

48. Agar qarzдорlik qoldig'i yilda bir marta o'zgarsa va yagona stavka qo'llanilsa, soddalashtirilgan hisob-kitobga yo'l qo'yiladi:

$$Qfoiz = yil\ boshidagi\ qarz\ dorlik\ qoldig'i \times (rbaz - ramal) / 100.$$

Masalan, agar yil boshida qarz qoldig'i 600 000 000 so'mni, bazaviy stavka - 14% ni, foizsiz bo'lib-bo'lib to'lashdagi amaldagi stavka esa - 0% ni tashkil etsa, baholanayotgan yil uchun imtiyozning pul ko'rinishidagi hajmi quyidagicha bo'ladi:

$$Qfoiz = 600\ 000\ 000 \times (14 - 0) / 100 = 84\ 000\ 000\ so'm.$$

49. Yillik baholashda Qfoiz tarkibiga faqat baholanayotgan hisobot yiliga taalluqli bo'lgan hisoblanmagan yoki kamaytirilgan foizlar summasi kiritiladi.

Bo'lib-bo'lib to'lashning butun davri uchun tejalgan mablag' summasi ma'lumotnoma tariqasida aks ettirilishi mumkin, biroq u hisobot davri uchun imtiyoz summasi o'rniga Sb ning yillik hisob-kitobiga qo'yilmaydi..

50. Agar foizlar Markaziy bankning asosiy stavkasi bo'yicha to'liq hajmda hisoblansa va tadbirkorlik subyekti ularni to'lashdan ozod etilmagan bo'lsa, pul ko'rinishidagi foiz imtiyozi mavjud bo'lmaydi.

Bunday holatda:

Qfoiz hisob-kitobga kiritilmaydi;

bo'lib-bo'lib to'lashning asosiy summasi imtiyoz deb e'tirof etilmaydi;

bo'lib-bo'lib to'lash qo'llab-quvvatlash sharti sifatida aks ettiriladi;

dastlabki to'lov, bo'lib-bo'lib to'lash muddati, to'lovlar grafigi, hisoblangan foizlar va qarzдорlik alohida nazorat qilinadi.

Quyidagi formulaning maxrajiga $Qfoiz = 0$ qiymatini qo'yishga yo'l qo'yilmaydi:

$$Sb = (Bt - Bt-1) / Q.$$

4. Imtiyozlar va qo'llab-quvvatlash choralari katalogi

4.1. Davlat aktivlarini xususiylashtirish

Huquqiy asos	Qo'llab-quvvatlash chorasining mazmuni	Q ni aniqlash tartibi
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 1-bandi "a" kichik bandi	Sotib olinayotgan davlat aktivining qiymati bir oy ichida to'liq to'langan taqdirda chegirma beriladi. Xaridor yozma yoki elektron ariza asosida davlat aktivining qiymatini oldi-sotdi shartnomasi yoki birja bitimi tuzilgan kundan boshlab bir oy ichida to'liq to'lasa, unga shartnoma yoki bitim tuzilgan sanada amal qilgan Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida chegirma beriladi.	1-model qo'llaniladi: Qchegirma = chegirmagacha bo'lgan xarid qiymati \times Markaziy bank asosiy stavkasi / 100.

<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 1-bandi "b" kichik bandi</p>	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasida joylashgan ko'chmas mulk obyekti uchun muddatidan oldin to'lov amalga oshirilganda chegirma beriladi. 2027-yil 1-yanvarga qadar maxsus tartib tatbiq etiladigan davlat ko'chmas mulk obyekti uchun obyekt qiymati uch oy ichida to'liq to'langan taqdirda shartnoma qiymatining 25 foizi miqdorida chegirma beriladi.</p>	<p>1-model qo'llaniladi: Qchegirma = shartnoma qiymati × 25 / 100. Qo'shimcha ravishda bitim sanasi, obyekt joylashgan hudud va uch oylik muddatga rioya qilinganligi o'rganiladi.</p>
<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 1-bandi "v" kichik bandi</p>	<p>Xorazm viloyatida joylashgan ko'chmas mulk obyekti uchun muddatidan oldin to'lov amalga oshirilganda chegirma beriladi. Maxsus hududiy tartib tatbiq etiladigan davlat ko'chmas mulk obyektining qiymati uch oy ichida to'liq to'langan taqdirda shartnoma qiymatining 25 foizi miqdorida chegirma beriladi.</p>	<p>1-model qo'llaniladi: Qchegirma = shartnoma qiymati × 25 / 100.</p>
<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 2-bandi "a" kichik bandi</p>	<p>Sotib olinayotgan davlat aktivlari uchun umumiy bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati. Xaridor aktiv qiymatini qismlarga bo'lib to'laydi. Bo'lib-bo'lib to'lashning eng yuqori muddati xarid qiymatining bazaviy hisoblash miqdorlaridagi hajmiga bog'liq bo'lib, 36 oygacha belgilanishi mumkin. Aniq shartlar shartnoma bilan belgilanadi.</p>	<p>Agar foizlar to'liq hisoblansa, bo'lib-bo'lib to'lash bo'yicha Q aniqlanmaydi. Alohida tartibda obyekt qiymati, boshlang'ich to'lov, muddat, to'lov grafigi va qarzdorlik aks ettiriladi. Foizlardan ozod qilish nazarda tutilgan bo'lsa, 5-model qo'llaniladi.</p>
<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 2-bandi "b" kichik bandi birinchi xatboshisi</p>	<p>Qoraqalpog'iston Respublikasidagi obyektlarni xarid qilishda yetti yillik bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyati. 2027-yil 1-yanvarga qadar maxsus tartib qo'llaniladigan obyektlar qiymati narxidan qat'i nazar yetti yilgacha bo'lib-bo'lib to'lanishi mumkin.</p>	<p>Asosiy qarz Q tarkibiga kiritilmaydi. Agar foizlar hisoblanmasligi nazarda tutilgan bo'lsa, 5-model qo'llaniladi. Boshqa hollarda chora protsessual xususiyatga ega deb hisoblanadi.</p>
<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 2-bandi "b" kichik bandi ikkinchi xatboshisi</p>	<p>Davlat-xususiylashtirish shiriklik loyihasi amalga oshirilgandan keyin obyektning xususiylashtirish maktabgacha ta'lim tashkiloti tomonidan xususiylashtirish. Majburiyatlar uchun yil davomida lozim darajada bajarilganidan so'ng xususiylashtirish maktabgacha ta'lim tashkiloti tegishli obyektning baholangan qiymatining 50 foizi evaziga, to'lovni besh yil davomida amalga oshirish sharti bilan sotib olishi mumkin.</p>	<p>Narx bo'yicha imtiyoz uchun 1-model qo'llaniladi: Qchegirma = baholangan qiymat – xususiylashtirish narxi. Bo'lib-bo'lib to'lash alohida baholanadi.</p>
<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 2-bandi "v" kichik bandi</p>	<p>Xorazm viloyatida obyektlarni sotib olishda besh yillik bo'lib-bo'lib to'lash. Maxsus hududiy tartib tatbiq etiladigan obyektlar qiymati besh yil davomida teng ulushlarda to'lanishi mumkin.</p>	<p>Asosiy qarz Q tarkibiga kiritilmaydi. Foiz bo'yicha imtiyoz mavjud bo'lganda 5-model qo'llaniladi.</p>
<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 2-bandi "v" kichik bandi</p>	<p>Mehmonxona va turistik obyektlarni xususiylashtirishda bo'lib-bo'lib to'lash. Tegishli obyektlar qiymati</p>	<p>Asosiy qarz Q tarkibiga kiritilmaydi. Hisoblanmagan foizlar mavjud bo'lganda 5-model qo'llaniladi. Qo'shimcha ravishda</p>

to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 2-bandi "g" kichik bandi	besh yilgacha bo'lgan muddatda bo'lib-bo'lib to'lanishi mumkin.	obyektning maqsadli vazifasi saqlab qolinganligi nazorat qilinadi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 2-bandi "d" kichik bandi	"20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturi ishtirokchilari uchun foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash. Xaridor aktiv qiymatini uch yildan besh yilgacha bo'lgan muddatda qismlarga bo'lib to'laydi, biroq qarz qoldig'iga foizlar hisoblanmaydi.	5-model qo'llaniladi: Qfoiz = imtiyoz bo'lmagan taqdirda hisoblanishi lozim bo'lgan foizlar. Har yillik baholashda faqat baholanayotgan yil uchun hisoblangan summa inobatga olinadi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 2-bandi "ye" kichik bandi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning differensial tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 3-ilova	4 va 5-toifadagi tumanlar hamda shaharlarda to'lov muddatini uzaytirish. Toifa obyekt joylashgan hududga nisbatan belgilanadi. To'lovlar obyekt qiymatidan qat'i nazar 60 oy davomida teng ulushlarda amalga oshirilishi mumkin. Belgilangan toifadagi tadbirkorlik subyektlari uchun muddat yetti yilgacha belgilanishi mumkin.	Asosiy qarz Q tarkibiga kiritilmaydi. Agar foizlar hisoblanmasligi nazarda tutilgan bo'lsa, 5-model qo'llaniladi. Kartochkada tuman yoki shahar, hudud toifasi hamda uni belgilashning huquqiy asosi ko'rsatiladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 2-bandi "j" kichik bandi	Elektrotexnika sanoati korxonalarini uchun o'n yillik bo'lib-bo'lib to'lash. Elektrotexnika sanoati korxonalarini belgilangan talablarga rioya qilgan holda sotib olinayotgan obyektlar qiymatini o'n yilgacha bo'lgan muddatda bo'lib-bo'lib to'lashlari mumkin.	Asosiy qarz Q tarkibiga kiritilmaydi. Foiz bo'yicha imtiyoz mavjud bo'lganda 5-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 2-bandi "z" kichik bandi	Avtotransport korxonalarini faoliyat yo'nalishini saqlab qolgan holda sotish. Obyekt qiymati besh yilgacha bo'lgan muddatda bo'lib-bo'lib to'lanishi mumkin. Belgilangan muddatda sotilmagan taqdirda boshlang'ich narx belgilangan miqdorgacha pasaytirilishi mumkin.	Obyekt pasaytirilgan narxda amalda sotilgan taqdirda 2-model qo'llaniladi: Qnarx = dastlabki boshlang'ich narx – amaldagi realizatsiya narxi. Bo'lib-bo'lib to'lash alohida baholanadi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 2-bandi "i" kichik bandi	Sotib olinayotgan aktivni garovga qo'yish huquqi. Belgilangan miqdordagi bir martalik boshlang'ich to'lov amalga oshirilgandan keyin xaridor sotib olinayotgan aktivdan moliyalashtirish jalb qilish maqsadida garov sifatida foydalanish huquqiga ega bo'ladi.	Protessual qo'llab-quvvatlash chorasi. Q aniqlanmaydi. Kartochkada boshlang'ich to'lov, obyekt qiymati, garov fakti va jalb qilingan moliyalashtirish summasi aks ettiriladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 2-bandi "k" kichik bandi	Tibbiyot va ta'lim tashkilotlari uchun besh yillik bo'lib-bo'lib to'lash. Tegishli obyektini ixtisoslashtirilgan faoliyat uchun sotib olishda uning qiymati obyekt narxidan qat'i nazar besh yilgacha bo'lgan muddatda bo'lib-bo'lib to'lanishi mumkin.	Asosiy qarz Q tarkibiga kiritilmaydi. Hisoblanmagan foizlar mavjud bo'lganda 5-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 3-bandi	Qarz qoldig'iga foizlar hisoblanmasligi. Qonunchilikda nazarda tutilgan hollarda to'lanmay qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdoridagi yillik foizlar hisoblanmaydi.	5-model qo'llaniladi. Qfoiz qiymati baholanayotgan davr uchun qarzдорlik grafigi asosida aniqlanadi.

<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 4-bandi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning differensial tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 3-ilova</p>	<p>4 va 5-toifadagi tumanlar hamda shaharlarda boshlang'ich zakalat miqdorini kamaytirish. Savdo ishtirokchisi amaldagi stavkaning 50 foizi miqdorida zakalat to'laydi. Ushbu chora muomaladan vaqtincha chiqariladigan pul mablag'lari hajmini kamaytiradi.</p>	<p>6-model qo'llaniladi: $Lz = \text{umumiy stavka bo'yicha zakalat} - \text{amalda belgilangan zakalat}$. Lz qiymati Q tarkibiga kiritilmaydi.</p>
<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 5-bandi</p>	<p>Sotilmagan aktivlarning boshlang'ich narxini bosqichma-bosqich pasaytirish. Agar obyekt belgilangan muddat davomida sotilmagan bo'lsa, uning boshlang'ich narxi belgilangan tartibda izchil ravishda pasaytirilishi mumkin.</p>	<p>Shartnoma tuzilgandan keyin 2-model qo'llaniladi: $Q_{narx} = \max(0; \text{dastlabki boshlang'ich narx} - \text{amaldagi realizatsiya narxi})$.</p>
<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 6-bandi</p>	<p>Davlat mulkini qismlarga bo'lib sotish. Agar obyekt tarkibida ortiqcha maydon yoki yer uchastkasi mavjud bo'lsa, xaridorga mulkning zarur qismi sotilishi, ortiqcha maydon esa mahalliy davlat hokimiyati organiga o'tkazilishi mumkin.</p>	<p>Protessual qo'llab-quvvatlash chorasi. Q aniqlanmaydi. Alohida tartibda obyekt maydoni, sotilayotgan qismi va sotish narxi aks ettiriladi.</p>
<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 7-bandi "a" kichik bandi</p>	<p>Ijaraga olingan obyekt qismini ijarachi tomonidan to'g'ridan-to'g'ri sotib olish. Belgilangan shartlar, jumladan uzoq muddatli ijara, ijara to'lovlarini o'z vaqtida amalga oshirish hamda yaxshilash ishlarini bajarish talablari bajarilgan taqdirda, ijarachi obyektning ijaraga olingan qismini baholangan qiymat bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri sotib olishi mumkin.</p>	<p>Agar sotish baholangan qiymat bo'yicha chegirmasiz amalga oshirilsa, Q aniqlanmaydi. Ijara muddati, to'lovlar, amalga oshirilgan yaxshilashlar, baholangan qiymat va sotish narxi qayd etiladi.</p>
<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoni 6-bandi "a" kichik bandi; mazkur Farmonga 6-ilovaning I bo'limi 7-bandi "b" kichik bandi</p>	<p>Maydoni 10 ming kvadrat metrgacha bo'lgan obyektidan yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqaruvchi tomonidan keyinchalik to'g'ridan-to'g'ri sotib olish huquqi bilan bepul foydalanish. Obyekt yuqori texnologiyali mahsulot ishlab chiqaruvchiga besh yil muddatga bepul foydalanish uchun beriladi. Shartnoma shartlari bajarilgan taqdirda obyekt foydalanuvchiga baholangan qiymat bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri sotilishi mumkin.</p>	<p>Bepul foydalanish davrida 4-model qo'llaniladi: $Q_{bepul} = \text{baholanayotgan yil uchun rasman hisoblangan ijara haqi}$. Obyekt baholangan qiymat bo'yicha chegirmasiz sotilganda qo'shimcha Q yuzaga kelmaydi.</p>
<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning I bo'limi 7-bandi "v" kichik bandi</p>	<p>Keyinchalik sotib olish imkoniyati bilan munitsipal obyektini to'g'ridan-to'g'ri ijaraga berish. Belgilangan maydon va qiymatga ega bo'lgan hamda olti oy davomida savdolarda sotilmagan munitsipal obyekt tadbirkorga o'n yil muddatga to'g'ridan-to'g'ri ijaraga berilishi mumkin. Shartnoma shartlari</p>	<p>Agar ijara haqi alohida kamaytirilmasdan berilgan bo'lsa, Q aniqlanmaydi. Ijara bo'yicha chegirma mavjud bo'lganda 3-model qo'llaniladi. Obyekt baholangan qiymat bo'yicha chegirmasiz sotilganda qo'shimcha Q yuzaga kelmaydi.</p>

	bajarilganidan keyin ijarachi obyektni to'g'ridan-to'g'ri sotib olish huquqiga ega bo'lishi mumkin.	
--	---	--

4.2. Yer maydonlarini sotish

Huquqiy asos	Qo'llab-quvvatlash chorasining mazmuni	Q ni aniqlash tartibi
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning II bo'limi 1-bandi	Yer uchastkasi qiymati 15 ish kuni ichida to'liq to'langan taqdirda chegirma berish. Yer uchastkasi qiymati belgilangan muddatda to'liq to'langanida xaridorga 20 foiz miqdorida chegirma taqdim etiladi. Agar yer uchastkasining boshlang'ich narxi 50 foizdan ortiq kamaytirilgan bo'lsa, mazkur chegirma qo'llanilmaydi.	1-model qo'llaniladi: $Q_{\text{chegirma}} = \text{chegirmagacha bo'lgan yer uchastkasi qiymati} \times 20 / 100$.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning II bo'limi 2-bandi "a" kichik bandi	"20 ming tadbirkor — 500 ming malakali mutaxassis" dasturi ishtirokchilari uchun foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash. Dastur ishtirokchisi yer uchastkasiga bo'lgan huquq qiymatini uch yildan besh yilgacha bo'lgan muddatda qismlarga bo'lib to'laydi, biroq foizlar hisoblanmaydi.	5-model qo'llaniladi. Qfoiz tarkibiga baholanayotgan davr uchun hisoblanmagan foizlar summasi kiritiladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning II bo'limi 2-bandi "b" kichik bandi	Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkasiga mulk huquqi yoki ijara huquqi qiymatini bo'lib-bo'lib to'lash. To'lov tasdiqlangan grafik asosida qismlarga bo'lib amalga oshiriladi. Qarz qoldig'iga Markaziy bankning asosiy stavkasi bo'yicha foizlar hisoblanadi.	Foizlar to'liq hajmda hisoblanganligi sababli bo'lib-bo'lib to'lashning o'zi bo'yicha Q aniqlanmaydi. Alohida ravishda boshlang'ich to'lov, muddat, to'lov grafigi, qarzдорlik va hisoblangan foizlar aks ettiriladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning II bo'limi 2-bandi "v" kichik bandi	Erkin iqtisodiy zonalar, kichik sanoat zonolari va yoshlar sanoat zonalaridagi yer uchastkalari bo'yicha ijara to'lovlarini kechiktirish. Ijara to'lovlarini amalga oshirish muddati loyiha ishga tushirilgunga qadar, biroq ikki yildan ko'p bo'lmagan muddatga ko'chirilishi mumkin.	Keyinchalik to'liq hajmda to'lanishi lozim bo'lgan kechiktirilgan to'lovlar Q tarkibiga kiritilmaydi. Agar foizlardan ozod qilish rasman belgilangan bo'lsa, 5-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning II bo'limi 3-bandi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning differensial tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 3-ilova	4 va 5-toifadagi tumanlar hamda shaharlarda yer uchastkalari bo'yicha boshlang'ich zakalat miqdorini kamaytirish. Savdolarda ishtirok etish uchun ishtirokchi amaldagi stavkaning 50 foizi miqdorida zakalat kiritadi.	6-model qo'llaniladi. Lz qiymati alohida aks ettiriladi va Q tarkibiga kiritilmaydi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning II bo'limi 4-bandi	Boshlang'ich to'lov kiritilgandan keyin yer uchastkasini garovga qo'yish huquqi. Belgilangan shartlarga rioya qilingan taqdirda xaridor yer uchastkasidan moliyalashtirish jalb qilish uchun	Protsessual qo'llab-quvvatlash chorasi. Q aniqlanmaydi.

	ta'minot sifatida foydalanish huquqiga ega bo'ladi.	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning II bo'limi 5-bandi	Savdolarida sotilmagan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari boshlang'ich narxini bosqichma-bosqich pasaytirish. Yer uchastkasining narxi belgilangan muddatlar o'tgach va savdolar natijasiz tugagan hollarda izchil ravishda pasaytirilishi mumkin.	Shartnoma tuzilgandan keyin 2-model qo'llaniladi: $Q_{narx} = \max(0; \text{dastlabki boshlang'ich narx} - \text{amaldagi realizatsiya narxi})$.

4.3. Davlat mulki ijarasi

Huquqiy asos	Qo'llab-quvvatlash chorasining mazmuni	Q ni aniqlash tartibi
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 1-bandi "a" kichik bandi	Uyda mehnat qiluvchilar mehnatidan foydalanuvchi tadbirkorlik subyektlari uchun ijara haqini kamaytirish. 2026-yil 1-yanvarga qadar 30 nafardan ortiq uyda mehnat qiluvchilarni jalb qilgan va belgilangan talablarga javob bergan subyektlar odatdagi ijara haqining 50 foizini to'lagan. Ushbu chora amal qilgan davrda tuzilgan shartnomalarni retrospektiv baholash uchun saqlanib qoladi.	Retrospektiv baholashda 3-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 1-bandi "b" kichik bandi	Nodavlat sport-ta'lim muassasalari uchun ijara xarajatlarini kamaytirish. 2026-yil 1-yanvarga qadar ijara xarajatlari 50 foizga kamaytirilgan.	Retrospektiv baholashda 3-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 1-bandi "v" kichik bandi	Sport to'garaklarini tashkil etish uchun mahallalardagi binolarni imtiyozli ijaraga berish. Binolar elektron savdolarsiz eng kam ijara haqining 50 foizini tashkil etuvchi stavka bo'yicha taqdim etiladi.	3-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 1-bandi "g" kichik bandi	Investitsiya majburiyatlari bajarilganda moddiy madaniy meros obyektlarini imtiyozli ijaraga berish. Ijarachi besh yil muddatga hisoblangan ijara haqining 80 foizini to'lashdan ozod qilinadi.	3-model qo'llaniladi: $Q_{ijara} = \text{hisoblangan ijara haqi} \times 80 / 100$.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 1-bandi "d" kichik bandi	Kollejlarning bo'sh turgan obyektlari va xonalarini ta'lim dasturlari ishtirokchilariga eng kam stavka bo'yicha ijaraga berish. Binolar fuqarolarni o'qitish va kasbiy tayyorlash maqsadida foydalaniladi.	Rasman belgilangan taqqoslanadigan stavka mavjud bo'lganda 3-model qo'llaniladi. Agar rasmiy taqqoslash bazasi mavjud bo'lmasa, Q aniqlanmaydi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 1-bandi "ye" kichik bandi	Sportchilar va murabbiylarga sport to'garaklarini tashkil etish uchun xonalarni imtiyozli ijaraga berish. Binolar foydalanuvchilarning nazarda tutilgan toifalariga eng kam ijara haqining 50 foizini tashkil etuvchi stavka bo'yicha beriladi.	3-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun	Sog'liqni saqlash tashkilotlari uchun ijaraning eng kam stavkasini	3-model qo'llaniladi: $Q_{ijara} = \text{imtiyozsiz eng kam ijara haqi} \times 20 / 100$.

xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovanning III bo'limi 1-bandi "j" kichik bandi	pasaytirish. Eng kam ijara stavkasi 20 foizga kamaytiriladi.	
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovanning III bo'limi 1-bandi "z" kichik bandi	"Ayollar daftari"ga kiritilgan xotinqizlarni uyda mehnat qilish uchun ishga qabul qilgan subyektlar uchun ijara haqini kamaytirish. Belgilangan shartlarga rioya qilingan taqdirda subyekt odatdagi ijara haqining 50 foizini to'laydi.	3-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovanning III bo'limi 1-bandi "i" kichik bandi	"Yoshlar daftari"ga kiritilgan yoshlarni ish bilan ta'minlagan subyektlar uchun ijara haqini kamaytirish. Belgilangan shartlar bajarilganda subyekt ijara bo'yicha nazarda tutilgan miqdorda imtiyoz oladi.	3-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovanning III bo'limi 1-bandi "k" kichik bandi	Ijarachilarning alohida toifalari uchun imtiyozli ijara. Qonunchilikda nazarda tutilgan toifalar uchun ijara haqi elektron savdolar natijalariga ko'ra shakllangan summaning 50 foizi miqdorida belgilanadi.	3-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoni 8-bandi "a" kichik bandi	Yillik ijara haqini muddatidan oldin to'laganda chegirma berish. Agar ijarachi shartnoma tuzilgan kundan boshlab bir oy ichida yillik ijara haqini to'liq to'lasa, unga yillik ijara haqi summasidan hisoblangan Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida chegirma beriladi.	1-model qo'llaniladi: $Q_{\text{chegirma}} = \text{chegirmagacha bo'lgan yillik ijara haqi} \times \text{Markaziy bankning asosiy stavkasi} / 100.$
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovanning III bo'limi 2-bandi "a" kichik bandi	Madaniy meros obyektlaridan foydalanuvchi hunarmandlar uchun boshlang'ich ijara stavkasini kamaytirish. Ijaraning boshlang'ich narxi amaldagi stavkaning 50 foizi miqdorida belgilanadi.	Shartnoma tuzilgandan keyin 3-model qo'llaniladi. Shartnoma tuzilgunga qadar Q aniqlanmaydi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovanning III bo'limi 2-bandi "b" kichik bandi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda PF-287-son "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning differensial tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoniga 3-ilova	4 va 5-toifadagi tumanlar hamda shaharlarda joylashgan obyektlar bo'yicha boshlang'ich ijara stavkasini kamaytirish. Ijaraning boshlang'ich narxi amaldagi stavkaning 50 foizi miqdorida belgilanadi. Toifa obyekt joylashgan hududga nisbatan belgilanadi.	Shartnoma tuzilgandan keyin 3-model qo'llaniladi. Agar ijaraning yakuniy narxi odatdagi stavka darajasiga yetgan yoki undan oshib ketgan bo'lsa, pul ko'rinishidagi afzallik mavjud emas.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoni 8-bandi "b" kichik bandi	Olti oy davomida ijaraga berilmagan obyektning boshlang'ich ijara narxini kamaytirish. Agar obyektning olti oy davomida elektron savdolar orqali ijaraga berishning imkoni bo'lmagan bo'lsa, boshlang'ich narx 50 foizga kamaytiriladi. Agar obyekt shundan keyin ham ijaraga berilmagan bo'lsa, savdolar bitta talabgor ishtirokida ham bo'lib o'tgan deb e'tirof etilishi mumkin.	Shartnoma tuzilgandan keyin 3-model qo'llaniladi: $Q_{\text{ijara}} = \text{dastlabki stavka bo'yicha ijara haqi} - \text{shartnoma bo'yicha amaldagi ijara haqi}.$ Shartnoma tuzilgunga qadar Q aniqlanmaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 3-bandi	Sanoat zonalaridagi obyektlar bo'yicha ijara to'lovlarini bo'lib-bo'lib to'lash. Ijara to'lovlari grafik asosida 24 oygacha bo'lgan muddatga taqsimlanishi mumkin.	Agar ijara haqining umumiy summasi saqlanib qolsa va rasman aniqlanadigan pul ko'rinishidagi afzallik mavjud bo'lmasa, Q aniqlanmaydi. Foizlar hisoblanmagan taqdirda 5-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 4-bandi "a" kichik bandi	Kasbiy ko'nikmalar markazlarining binolari va jihozlarini o'quv kurslarini o'tkazish uchun berish. Binolar va jihozlar bepul foydalanish uchun yoki uzoq muddatli ijara asosida taqdim etiladi.	Bepul foydalanish holatida 4-model qo'llaniladi. Imtiyozli ijara holatida 3-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 4-bandi "b" kichik bandi	IT-xizmatlar eksporti dasturi ishtirokchilariga binolardan bepul foydalanish huquqini berish. Binolar bir yilgacha bo'lgan muddatga taqdim etiladi.	4-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 4-bandi "v" kichik bandi	Davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ovqatlanirishni autsorsing asosida tashkil etishda oshxona xonalari, jihozlar, idish-tovoqlar va mebellarni berish. Mol-mulk vaqtincha bepul foydalanish uchun beriladi va belgilangan maqsadlarda foydalanilishi shart.	Taqqoslanadigan to'lovning rasmiy hisob-kitobi mavjud bo'lganda 4-model qo'llaniladi. Agar hisob-kitob mavjud bo'lmasa, Q aniqlanmaydi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 4-bandi "g" va "d" kichik bandlari	Yoshlar ittifoqi a'zosi bo'lgan yosh tadbirkorlarga ishlab chiqarish maydonlarini bepul foydalanish uchun berish. Ishlab chiqarish maydonlari besh yilgacha bo'lgan muddatga taqdim etiladi.	4-model qo'llaniladi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 4-bandi "ye" kichik bandi	Navoiy viloyatining ayrim tumanlari va Zarafshon shahridagi bo'sh turgan obyektlarni bepul foydalanish uchun berish. Obyektlar ish o'rinlari yaratish bo'yicha shartlar bajarilgan taqdirda o'n yilgacha bo'lgan muddatga taqdim etiladi.	4-model qo'llaniladi. Qo'shimcha ravishda ish o'rinlari yaratilishi va obyektidan maqsadli foydalanilishi nazorat qilinadi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 4-bandi "j" kichik bandi	Qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish uchun davlat binolarining qismlaridan foydalanish. Bino qismlari tegishli uskunalarni joylashtirish uchun taqdim etiladi.	Rasmiy hisob-kitob mavjud bo'lganda 4-model qo'llaniladi. Agar hisob-kitob mavjud bo'lmasa, Q aniqlanmaydi.
O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoniga 6-ilovaning III bo'limi 4-bandi "z" kichik bandi; O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 8-maydagi PQ-150-son "2026-yilda O'zbekistonda o'tkaziladigan 46-Jahon shaxmat olimpiadasiga kompleks tayyorgarlik ko'rish, shuningdek shaxmatni ommaviy harakatga aylantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 10-bandi	Xususiy shaxmat klublariga binolarni bepul taqdim etish. Davlat mulki obyektlaridagi va hududiy yoshlar markazlaridagi binolar xususiy shaxmat klublariga to'garaklar tashkil etish hamda aholiga shaxmat xizmatlarini ko'rsatish uchun ijara haqi undirilmasdan beriladi. Kommunal to'lovlar bino foydalanuvchisi tomonidan mustaqil ravishda to'lanadi.	4-model qo'llaniladi. Kommunal to'lovlar Q tarkibiga kiritilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son “2025-yil uchun xususiy lashtirish dasturi to‘g‘risida”gi Farmoniga 6-ilovaning III bo‘limi 4-bandi “i” kichik bandi	“Yoshlar daftari”ga kiritilgan xodimlar ulushi yuqori bo‘lgan ishlab chiqarish subyektlarini ijara haqid an ozod qilish. Belgilangan ulush ta‘minlangan taqdirda subyekt besh yil muddatga ijara haqini to‘lashdan ozod qilinadi.	3-model qo‘llaniladi: Qijara = baholanayotgan davr uchun to‘liq hisoblangan ijara haqi.
O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son “2025-yil uchun xususiy lashtirish dasturi to‘g‘risida”gi Farmoniga 6-ilovaning III bo‘limi 4-bandi “k” kichik bandi	“Ayollar daftari”ga kiritilgan xotin-qizlarning uy mehnatidan foydalanuvchi subyektlarni ijara haqid an ozod qilish. Belgilangan shartlar bajarilgan taqdirda subyekt 2027-yil 1-oktyabrga qadar ijara haqini to‘lashdan ozod qilinadi.	3-model qo‘llaniladi: Qijara = baholanayotgan davr uchun to‘liq hisoblangan ijara haqi.

5. Q ni aniqlashning qo‘shimcha qoidalari va ikki karra hisobga olishning oldini olish

51. Agar obyekt yoki yer uchastkasining realizatsiya narxi pasaytirilgan bo‘lsa va keyinchalik shu bitim bo‘yicha muddatidan oldin to‘lov amalga oshirilganligi uchun chegirma berilsa, ushbu qo‘llab-quvvatlash choralari ni bir vaqtning o‘zida qo‘llash mumkinligi tekshirilishi lozim.

Agar qo‘llaniladigan qonunchilik hujjatida boshlang‘ich narxi pasaytirilganidan keyin realizatsiya qilingan obyektlarga qo‘shimcha chegirma berish qo‘llanilmasligi belgilangan bo‘lsa, Qchegirma hisoblanmaydi.

Yer uchastkalari bo‘yicha 15 ish kuni ichida to‘liq to‘lov amalga oshirilganda beriladigan chegirma, agar yer uchastkasining boshlang‘ich narxi avval 50 foizdan ortiq kamaytirilgan bo‘lsa, qo‘llanilmaydi.

52. Agar obyekt bir necha yil muddatga bepul foydalanish uchun berilgan bo‘lsa, yillik hisob-kitobga faqat baholanayotgan hisobot yili uchun foydalanish qiymati kiritiladi.

Masalan, agar obyekt besh yil muddatga bepul foydalanish uchun berilgan bo‘lsa, birinchi yil uchun baholashda Q tarkibiga barcha besh yil uchun ijara qiymatini kiritish mumkin emas.

Quyidagi formula qo‘llaniladi:

Qtekin = baholanayotgan yil uchun rasman hisoblangan taqqoslanadigan ijara haqi.

Shartnomaning butun amal qilish muddati uchun umumiy summa ma‘lumot uchun alohida keltirilishi mumkin.

53. Agar bo‘lib-bo‘lib to‘lash Markaziy bankning asosiy stavkasi bo‘yicha foizlar hisoblangan holda taqdim etilgan bo‘lsa, asosiy qarz summasi hamda hisoblangan foizlar imtiyoz deb e‘tirof etilmaydi.

Bunday holda bo‘lib-bo‘lib to‘lashning o‘zi bo‘yicha **Q** aniqlanmaydi.

Hisob-kitob kartochkasida quyidagilar alohida aks ettiriladi:

shartnoma summasi;

boshlang'ich to'lov;

asosiy qarz qoldig'i;

bo'lib-bo'lib to'lash muddati;

to'lovlar grafigi;

hisoblangan foizlar;

amalda kiritilgan to'lovlar;

muddati o'tgan qarzдорlikning mavjudligi yoki mavjud emasligi.

54. To'lovlarni kechiktirish ularni to'lashdan ozod qilishni emas, balki to'lash muddatini keyinga ko'chirishni anglatadi.

Agar kechiktirish muddati tugagandan keyin to'lov to'liq hajmda amalga oshirilishi lozim bo'lsa, mazkur summa Q tarkibiga kiritilmaydi.

DenTo'lovni kechiktirish natijasida yuzaga keladigan pul ko'rinishidagi afzallik faqat uni hisoblashning rasman belgilangan tartibi mavjud bo'lgan taqdirdagina Q tarkibiga kiritiladi.

55. Agar obyekt yoki yer uchastkasi savdolar natijalariga ko'ra sotilsa yoki ijaraga berilsa, boshlang'ich narxning pasaytirilishi o'z-o'zidan tadbirkorlik subyekti imtiyozni narx pasaytirilgan miqdorda olganligini anglatmaydi.

Savdolar o'tkazilgandan keyin Q qiymati shartnomada belgilangan amaldagi narxdan kelib chiqqan holda aniqlanadi.

Agar amaldagi narx dastlabki darajaga yetgan yoki undan yuqori bo'lgan bo'lsa, pul ko'rinishidagi afzallik mavjud emas.

56. Boshlang'ich zakalat miqdori kamaytirilganda bo'shagan likvidlik summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$Lz = \text{umumiy stavka bo'yicha zakalat} - \text{amalda belgilangan zakalat.}$

Lz ko'rsatkichi Q tarkibiga kiritilmaydi, chunki zakalatning kamaytirilishi:

obyektning yakuniy narxini kamaytirmaydi;

g'olibni xaridning to'liq qiymatini to'lashdan ozod qilmaydi;

qaytarilmaydigan pul imtiyozi hisoblanmaydi.

Agar ishtirokchi savdolarida g'olib bo'lmasa, zakalat unga belgilangan tartibda qaytariladi.

Agar ishtirokchi savdolarida g'olib bo'lib, shartnoma tuzsa, kiritilgan zakalat sotib olinayotgan obyekt yoki yer uchastkasiga bo'lgan huquq uchun to'lov hisobiga o'tkaziladi.

Agar g'olib o'z majburiyatlarini bajarishdan bo'yin tovlasa, qonunchilikda belgilangan hollarda zakalat qaytarilmasligi mumkin.

57. Protsessual xususiyatga ega bo'lgan qo'llab-quvvatlash choralari bo'yicha Q ning puldagi qiymati aniqlanmaydi.

Bunday choralarga quyidagilar kiradi:

foizlar hisoblangan holda bo'lib-bo'lib to'lash;

puldagi afzallikni baholashning rasmiy tartibi mavjud bo'lmagan holda to'lovlarni kechiktirish;

obyekt yoki yer uchastkasini garovga qo'yish huquqi;

zakalat miqdorini kamaytirish;

baholangan qiymat bo'yicha chegirmasiz to'g'ridan-to'g'ri sotib olish;

obyektni sotishdan oldin qismlarga ajratish;

bitta talabgor ishtirokida savdolarini bo'lib o'tgan deb e'tirof etish imkoniyati.

58. Agar qo'llab-quvvatlash chorasining puldagi qiymati mavjud bo'lmasa yoki uni qonunchilik hujjati, shartnoma, rasmiy stavkalar, rasmiy to'lov grafigi yoki axborot tizimi ma'lumotlari asosida hisoblab bo'lmasa, Q qiymati aniqlanmaydi.

Taxminiy, shartli va mustaqil ravishda hisoblangan summalar hisob-kitobga kiritilmaydi.

Hisob-kitob kartochkasida quyidagilar aks ettiriladi:

Q ni aniqlash imkoni yo'qligining sababi;

qo'llab-quvvatlash chorasini qo'llashning bevosita natijasi;

amalda erishilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar;

amalda erishilgan ijtimoiy ko'rsatkichlar;

majburiyatlarning bajarilishi;

to'lovlar grafigi;

qarzdorlikning mavjudligi yoki mavjud emasligi.

59. Agar Q mavjud bo'lmasa yoki rasman aniqlanishi mumkin bo'lmasa, moliyaviy samaradorlik ko'rsatkichi:

$$S_b = (B_t - B_{t-1}) / Q$$

hisoblanmaydi.

Yakuniy ko'rsatkich:

$$K_s = (S_{iqt} + S_b + S_{ijt}) / 3$$

ham aniqlanmaydi, chunki uning majburiy tarkibiy qismlaridan biri mavjud emas.

Bu qo'llab-quvvatlash chorasini avtomatik tarzda samarasiz deb topishni anglatmaydi.

Bunday holda alohida xulosa quyidagilar asosida shakllantiriladi:

qo'llab-quvvatlash chorasini qo'llashning bevosita natijasi;

shartnoma shartlarining bajarilishi;

erishilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar;

erishilgan ijtimoiy ko'rsatkichlar;

to'lovlarning o'z vaqtida amalga oshirilganligi;

qarzdorlikning mavjudligi yoki mavjud emasligi;

obyektning xo'jalik aylanmasiga jalb qilinganligi fakti;

obyektning maqsadli vazifasi saqlanganligi.

60. Imtiyoz faqat qo'llaniladigan qonunchilik hujjatida belgilangan muddat doirasida qo'llaniladi.

Agar qo'llab-quvvatlash chorasining amal qilish muddati tugagan bo'lsa, u yangi shartnomalarga nisbatan qo'llanilmaydi.

Shu bilan birga, mazkur chora o'z amal qilish davrida berilgan imtiyozlarni retrospektiv baholash maqsadida ushbu katalogda saqlanib qoladi.

61. Agar qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etish shartlari tuman yoki shahar toifasiga bog'liq bo'lsa, toifa imtiyoz berilgan sanada amal qilgan ro'yxat asosida aniqlanadi.

Hisob-kitob kartochkasida quyidagilar ko'rsatiladi:

tuman yoki shaharning nomi;

hudud toifasi;

hududni mazkur toifaga kiritishning huquqiy asosi;

shartnoma tuzilgan sana;

baholanayotgan davr.

62. Q, Qsub va Lz ni aniqlash natijalari hisob-kitob kartochkasida huquqiy asos, ma'lumotlar manbalari, baholanayotgan davr va hisoblash usuli ko'rsatilgan holda aks ettiriladi.

X. IJARA, TEKIN FOYDALANISH VA XUSUSIYLASHTIRISH SHARTLARI BAJARILISHI MONITORINGI

63. Davlat mulkini ijaraga berish bilan bog'liq qo'llab-quvvatlash choralari bo'yicha monitoringda obyektidan maqsadli foydalanilishi, obyektning saqlanishi, ijara haqining o'z vaqtida to'lanishi, qarzdorlik mavjudligi yoki mavjud emasligi, ijara shartnomasi shartlariga rioya etilishi va yaxshilash ishlari balans saqlovchining yozma roziligi asosida amalga oshirilganligi o'rganiladi.

64. Davlat mulkidan tekin foydalanish bilan bog'liq qo'llab-quvvatlash choralari bo'yicha monitoringda obyektidan maqsadli foydalanish, uning butligi va saqlanishi, kommunal va boshqa majburiy to'lovlar to'lanishi, shartnoma shartlari bajarilishi hamda obyektida amalga oshirilgan yaxshilash ishlari bo'yicha ruxsat hujjatlari mavjudligi o'rganiladi.

65. Davlat mulkini xususiylashtirish bilan bog'liq qo'llab-quvvatlash choralari bo'yicha monitoring xaridorning oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha to'lov, investitsiya, ijtimoiy, profilni saqlash va boshqa majburiyatlari bajarilishini kuzatishga qaratilgan holda shartnoma shartlari to'liq bajarilgunga qadar amalga oshiriladi.

66. Monitoring davomida shartnoma shartlari bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan holatlar aniqlansa, ushbu holatlar alohida qayd etiladi. Ular bo'yicha huquqiy ta'sir choralari faqat qonunchilik hujjatlari yoki shartnomada bevosita nazarda tutilgan tartibda qo'llaniladi.

67. Shartnoma shartlarining bajarilishi monitoringi va qo'llab-quvvatlash chorasining samaradorligini baholash o'zaro bog'liq, biroq mustaqil tartib-taomillar hisoblanadi. Imtiyoz berish shartining bajarilishi samaradorlikni hisoblash o'rnini bosmaydi; samaradorlikni hisoblash esa shartnoma majburiyatlarini monitoring qilishni bekor qilmaydi.

XI. BAHOLASH NATIJALARINI SHAKLLANTIRISH, ESHITILISH HUQUQI VA HISOBOTLILIK

68. Har bir tadbirkorlik subyekti va har bir turdagi qo'llab-quvvatlash chorasini bo'yicha ushbu Metodologiyaga 1-ilovaga muvofiq hisob-kitob kartochkasi rasmiylashtiriladi.

69. Hisob-kitob kartochkasida qo'llab-quvvatlash chorasining huquqiy asosi, oluvchi va obyekt to'g'risidagi ma'lumotlar, taqdim etish shartlari, maqsadli

WOT4334

ko'rsatkichlar, Q miqdori va uni aniqlash usuli, ma'lumotlar manbalari, Siqt, Sb, Sijt, Ks ko'rsatkichlari, bevosita natijalar va shartnoma majburiyatlari bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar aks ettiriladi.

70. Dastlabki xulosa shakllantirilgandan keyin u manfaatdor tadbirkorlik subyektiga yetkaziladi. Xulosada hisob-kitobda foydalanilgan ma'lumotlar, qo'llanilgan formulalar, baholash natijasi, aniqlangan kamchiliklar va ularni tasdiqlovchi hujjatlar ko'rsatiladi.

71. Tadbirkorlik subyektini dastlabki xulosa bo'yicha yozma tushuntirish, qo'shimcha hujjatlar va e'tirozlar taqdim etish huquqiga ega. Ularni ko'rib chiqish muddati va tartibi qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etuvchi tashkilotning ichki tartibida yoki qonunchilik hujjatlarida belgilanadi. Tushuntirish va e'tirozlar ko'rib chiqilmasdan yakuniy salbiy xulosa qabul qilinmaydi.

72. Baholash jarayonida fors-major holatlari, davlat organlari qarorlari, bozor konyunkturasi keskin o'zgarishi, infratuzilmaga ulanishda kechikishlar va tadbirkorlik subyektining irodasiga bog'liq bo'lmagan boshqa tashqi omillar hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda inobatga olinadi.

XII. SAMARASIZ YOKI MAQSADSIZ FOYDALANGAN SUBYEKTLAR RO'YXATI

WOT4334

73. Ks qiymati 0,5 dan kam bo'lishi qo'llab-quvvatlash chorasidan samarasiz foydalanilganligi to'g'risida dastlabki xulosa chiqarish uchun asos bo'lishi mumkin. Biroq past samaradorlik ko'rsatkichi o'z-o'zidan qo'llab-quvvatlash chorasidan maqsadsiz foydalanilganligini anglatmaydi.

74. Maqsadsiz foydalanish obyekt yoki mablag'lar qonunchilik hujjatida, shartnomada yoki qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etish shartlarida belgilangan maqsadlardan tashqari yo'nalishda ishlatilganligi hujjatlar bilan tasdiqlangan hollarda aniqlanadi.

75. Qo'llab-quvvatlash chorasidan samarasiz yoki maqsadsiz foydalangan tadbirkorlik subyektlari ro'yxati dastlabki xulosa tadbirkorlik subyektiga yetkazilganidan, uning tushuntirishlari va e'tirozlari ko'rib chiqilganidan hamda yakuniy xulosa rasmiylashtirilganidan keyin shakllantiriladi.

76. Ro'yxatda tadbirkorlik subyektining nomi, qo'llab-quvvatlash chorasi turi, huquqiy asos, obyekt yoki shartnoma rekvizitlari, baholash davri, aniqlangan holatlar, hisoblangan ko'rsatkichlar, tadbirkorlik subyektini tomonidan berilgan tushuntirishlar va yakuniy xulosa ko'rsatiladi.

WOT4334

77. Tadbirkorlik subyektlarining 50 foizidan ortig'i tomonidan muayyan qo'llab-quvvatlash chorasidan samarasiz yoki maqsadsiz foydalanilganligi yakuniy xulosalar bilan tasdiqlangan taqdirda, mazkur chorani o'zgartirish, cheklash yoki bekor qilish bo'yicha taklif tayyorlanishi mumkin.

XIII. ASSOSSIZ OLINGAN VA MAQSADSIZ FOYDALANILGAN SUBSIDİYALARNI QAYTARISH VA BOSHQA TA'SIR CHORALARI

78. Asossiz olingan yoki maqsadsiz foydalanilgan subsidiyalarni qaytarish Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 11-dekabrda 784-son qarori bilan tasdiqlangan Nizomda va boshqa qonunchilik hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

79. Davlat ko'chmas mulki obyektlari bilan bog'liq imtiyoz va preferensiyalar bo'yicha qaytarish yoki qayta hisoblash masalasi qo'llab-quvvatlash chorasining huquqiy tabiatiga qarab aniqlanadi. Agar chora pul mablag'i shaklidagi subsidiya bo'lmasa, balki chegirma, ijara haqidan ozod qilish, foiz hisoblamaslik, tekin foydalanish yoki protsedurali yengillik shaklida berilgan bo'lsa, huquqiy oqibatlar qonunchilik hujjati va shartnoma shartlariga muvofiq belgilanadi.

80. Qonunchilik hujjati yoki shartnomada nazarda tutilgan hollarda quyidagi ta'sir choralari ko'rib chiqilishi mumkin: asossiz olingan subsidiyani qaytarish; imtiyozni bekor qilish yoki keyingi davrlar uchun to'xtatish; ijara yoki sotib olish to'lovlarini qayta hisoblash; shartnoma shartlarida belgilangan penya yoki jarimani qo'llash; shartnomani bekor qilish; keyingi qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etishda cheklovlarni qo'llash.

81. Qaytarilishi lozim bo'lgan summa, uning manbasi, hisoblash usuli, to'lash muddati va to'lov rekvizitlari tadbirkorlik subyektiga yuboriladigan yozma xabarnomada ko'rsatiladi. Tadbirkorlik subyekti mazkur xabarnoma bo'yicha tushuntirish va e'tiroz taqdim etish huquqiga ega.

82. Qo'llab-quvvatlash choralari taqdim etuvchi tashkilot har yili 1-iyulga qadar tadbirkorlik subyektlari kesimida dastlabki baholash natijalari bo'yicha hisobotni vakolatli organga taqdim etadi. Qo'llab-quvvatlash choralari, ularni taqdim etish shartlari va baholash natijalari to'g'risidagi ma'lumotlar belgilangan tartibda axborot tizimlarida hamda «subsidiya.mf.uz» platformasidagi reestrda aks ettiriladi.

1-ILOVA

QO'LLAB-QUVVATLASH CHORASI BO'YICHA HISOB-KITOB KARTOCHKASI

Ko'rsatkich	Ma'lumotlar
1. Qo'llab-quvvatlash chorasining turi	

2. Huquqiy asos	
3. Tadbirkorlik subyekti	
4. Davlat ko'chmas mulk obyekti	
5. Qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etish shartlari	
6. Baholanayotgan davr	
7. Qo'llab-quvvatlash chorasining puldagi miqdori (Q)	
8. Q ni aniqlash usuli	
9. Ma'lumotlar manbalari	
10. Qo'llab-quvvatlash chorasining bevosita natijasi	
11. Shartnoma shartlarining bajarilishi to'g'risidagi ma'lumotlar	

Iqtisodiy ko'rsatkichlar

No	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	Kreja	Kamal	Ma'lumotlar manbasi
1					
2					
...					

Ijtimoiy ko'rsatkichlar

No	Ko'rsatkich	O'lchov birligi	Kreja	Kamal	Ma'lumotlar manbasi
1					
2					
...					

Samaradorlikni hisoblash

Ko'rsatkich	Hisoblangan qiymat	Baho
Siqt		
Sb		
Sijt		
Ks		

2-ILOVA

Taqdim etilgan qo'llab-quvvatlash chorasining tavsifi

Tadbirkorlik subyekti aholiga maishiy xizmatlar ko'rsatish maqsadida davlat ko'chmas mulk obyekti ijaraga olgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 21-apreldagi PF-70-son "2025-yil uchun xususiylashtirish dasturi to'g'risida"gi Farmoni 8-bandining "a" kichik bandiga muvofiq, agar ijarachi ijara shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab bir

oy ichida bir yillik ijara to'lovlarini to'liq amalga oshirsa, unga chegirma taqdim etiladi. Chegirma miqdori shartnoma tuzilgan sanada amal qilgan O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining asosiy stavkasiga teng bo'lib, yillik ijara haqi summasidan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Quyidagi holatlarda mazkur chegirma qo'llanilmaydi:

bir yildan kam muddatga tuzilgan ijara shartnomalari bo'yicha;

shartnomada chegirma qo'llanilmasligi nazarda tutilgan bo'lsa;

ijarachiga mazkur shartnoma bo'yicha boshqa imtiyozlar taqdim etilgan bo'lsa.

1. Boshlang'ich ma'lumotlar

Ko'rsatkich	Qiymati
Chegirma qo'llanilishidan oldingi yillik ijara haqi	240 000 000 so'm
Shartnoma tuzilgan sanadagi Markaziy bankning asosiy stavkasi	14 %
Yillik ijara haqini to'lash muddati	Bir oy ichida
Qo'llab-quvvatlash chorasining turi	Yillik ijara haqini muddatidan oldin to'lash uchun chegirma
Samaradorlikni baholash bo'yicha hisobot davri	Bir yil

2. Taqdim etilgan imtiyoz miqdori (Q) ni aniqlash

Imtiyoz miqdori taqdim etilgan chegirma summasiga teng:

$$Q = 240\,000\,000 \times 14 / 100 = 33\,600\,000 \text{ so'm.}$$

Demak, ijarachi tomonidan quyidagi summa to'lanishi lozim:

$$240\,000\,000 - 33\,600\,000 = 206\,400\,000 \text{ so'm.}$$

3. Imtiyoz taqdim etilishining bevosita natijasi

Davlat ijara shartnomasi tuzilgan sanadan boshlab bir oy ichida yil davomida to'lovlarning bosqichma-bosqich tushishini kutmasdan, 206 400 000 so'm miqdorida ijara haqini oldi.

Samaradorlikni keyingi baholash maqsadida Q sifatida aynan 33 600 000 so'm, ya'ni taqdim etilgan chegirma miqdori qabul qilinadi.

4. Iqtisodiy samaradorlik (Siqt) ni hisoblash

Faraz qilaylik, ijara shartnomasi yoki obyektidan foydalanish rejasida ikkita iqtisodiy ko'rsatkich nazarda tutilgan.

№	Iqtisodiy ko'rsatkich	Reja	Amalda	Amaldagi ko'rsatkichning rejaga nisbati hisob-kitobi
---	-----------------------	------	--------	--

1	Yil davomida ko'rsatilgan xizmatlar hajmi	500 000 000 so'm	475 000 000 so'm	$475\,000\,000 / 500\,000\,000 = 0,95$
2	Ko'rsatilgan xizmatlar soni	1 000 birlik	900 birlik	$900 / 1\,000 = 0,90$

Har bir ko'rsatkich bo'yicha bajarilish koeffitsiyenti aniqlanadi:

$$r_1 = \text{Amal}_1 / \text{Reja}_1 = 475\,000\,000 / 500\,000\,000 = 0,95;$$

$$r_2 = \text{Amal}_2 / \text{Reja}_2 = 900 / 1\,000 = 0,90.$$

Iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichi o'rtacha arifmetik qiymat sifatida aniqlanadi:

$$\text{Siqt} = (r_1 + r_2) / N,$$

bunda:

N - iqtisodiy ko'rsatkichlar soni.

Qiymatlarni qo'yamiz:

$$\text{Siqt} = (0,95 + 0,90) / 2 = 0,925.$$

Natija

$$\text{Siqt} = 0,925.$$

Bu belgilangan iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtacha hisobda 92,5 foizga bajarilganligini anglatadi.

5. Byudjet samaradorligi (Sb) ni hisoblash

Byudjet samaradorligi byudjetga tushumlar o'sishining taqdim etilgan imtiyoz miqdoriga nisbatan qay darajada ekanligini ko'rsatadi.

Quyidagi formula qo'llaniladi:

$$Sb = (Bt - Bt-1) / Q,$$

bunda:

Belgilanishi	Mazmuni
Bt	hisobot davrida tadbirkorlik subyekti tomonidan byudjetga to'langan to'lovlar summasi
Bt-1	oldingi taqqoslanadigan davrda tadbirkorlik subyekti tomonidan byudjetga to'langan to'lovlar summasi
Q	taqdim etilgan imtiyoz miqdori
Bt - Bt-1	byudjet tushumlarining o'sishi

Faraz qilaylik, ijarachining byudjetga to'lovlari quyidagicha bo'lgan:

Ko'rsatkich	Qiymati
Oldingi davrda byudjetga to'lovlar (Bt-1)	40 000 000 so'm
Hisobot davrida byudjetga to'lovlar (Bt)	70 000 000 so'm
Byudjet tushumlarining o'sishi	$70\,000\,000 - 40\,000\,000 = 30\,000\,000$ so'm
Imtiyoz miqdori (Q)	33 600 000 so'm

Qiymatlarni formulaga qo'yamiz:

$$Sb = (70\,000\,000 - 40\,000\,000) / 33\,600\,000;$$

$$S_b = 30\,000\,000 / 33\,600\,000 = 0,893.$$

Natija

$$S_b = 0,893.$$

Bu byudjetga tushumlarning o'sishi taqdim etilgan imtiyoz qiymatining **89,3 foizini qoplaganligini** anglatadi.

6. Ijtimoiy samaradorlik (Sijt) ni hisoblash

Faraz qilaylik, shartnoma yoki obyektidan foydalanish rejasida ikkita ijtimoiy ko'rsatkich nazarda tutilgan.

No	Ijtimoiy ko'rsatkich	Reja	Amalda	Hisob-kitob
1	Yangi ish o'rinlari yaratish	5 ta ish o'rni	5 ta ish o'rni	$\min(5 / 5; 1) = 1$
2	Xodimlarni o'qitish	4 nafar xodim	3 nafar xodim	$\min(3 / 4; 1) = 0,75$

Har bir ijtimoiy ko'rsatkich uchun quyidagi formula qo'llaniladi:

$$q = \min(\text{Fakt} / \text{Plan} ; 1).$$

1 qiymati bilan cheklash bir ijtimoiy ko'rsatkich bo'yicha rejadan ortiq bajarilish boshqa ko'rsatkich bo'yicha bajarilmaganlikni qoplamasligini anglatadi.

Ijtimoiy samaradorlik quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$S_{ijt} = (q_1 + q_2 + \dots + q_m) / M,$$

bunda:

M - ijtimoiy ko'rsatkichlar soni.

Qiymatlarni qo'yamiz:

$$S_{ijt} = (1 + 0,75) / 2 = 0,875.$$

Natija

$$S_{ijt} = 0,875.$$

Bu ijtimoiy majburiyatlar o'rtacha hisobda 87,5 foizga bajarilganligini anglatadi.

7. Umumlashtiruvchi samaradorlik koeffitsiyenti (Ks) ni aniqlash

Quyidagi formula qo'llaniladi:

$$K_s = (S_{iqt} + S_b + S_{ijt}) / 3.$$

Qiymatlarni qo'yamiz:

$$K_s = (0,925 + 0,893 + 0,875) / 3;$$

$$K_s = 2,693 / 3 = 0,898.$$

Yakuniy xulosa

$$K_s = 0,898.$$

Ushbu qiymat quyidagi oraliqqa tushganligi sababli:

$$0,7 \leq K_s < 1,$$

ijarachiga taqdim etilgan chegirma **samarali deb e'tirof etiladi.**

Imtiyoz miqdori **33 600 000 so'mni** tashkil etgan bo'lishiga qaramasdan, uning taqdim etilishi quyidagi natijalarga erishish imkonini berdi:

bir oy ichida 206 400 000 so'm miqdorida yillik ijara haqi tushumini ta'minladi;

iqtisodiy ko'rsatkichlarning 92,5 foizga bajarilishini ta'minladi;

byudjetga tushumlarning 30 000 000 so'mga o'sishini ta'minladi;

ijtimoiy majburiyatlarning 87,5 foizga bajarilishini ta'minladi.

Davlat ko'chmas mulk obyektini sotib olishda muddatidan oldin to'lov amalga oshirilganda beriladigan chegirma.

Tadbirkorlik subyektini ishlab chiqarish faoliyatini tashkil etish uchun davlat ko'chmas mulk obyektini sotib oldi.

Amaldagi tartibga muvofiq, agar sotib olish to'lovlari oldi-sotdi Amaldagi tartibga muvofiq, agar sotib olish to'lovlari oldi-sotdi shartnomasi yoki bir oylik muddatda to'lashni nazarda tutuvchi birja bitimi tuzilgan kundan boshlab bir oy ichida to'liq kiritilgan bo'lsa, yozma yoki elektron shakldagi ariza mavjud bo'lgan taqdirda davlat aktivi xaridoriga chegirma beriladi. Chegirma miqdori shartnoma tuzilgan sanadagi Markaziy bankning asosiy stavkasiga muvofiq keladi. Chegirmani qo'llamaslik sharti bilan realizatsiya qilingan aktivlarga, shuningdek, boshlang'ich narxi pasaytirilgan holda realizatsiya qilingan aktivlarga nisbatan chegirma qo'llanilmaydi.

1. Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rsatkich	Qiymati
Chegirma qo'llanilgunga qadar obyektning qiymati	1 000 000 000 so'm
Shartnoma tuzilgan sanadagi Markaziy bankning asosiy stavkasi	14 foiz
Sotib olish to'lovini kiritish muddati	bir oy ichida
Qo'llab-quvvatlash chorasining turi	sotib olinayotgan davlat aktivi uchun to'lovni muddatidan oldin amalga oshirganda beriladigan chegirma
Samaradorlikni baholash uchun hisobot davri	bir yil

2. Berilgan imtiyoz miqdori — Q ni aniqlash

Chegirma miqdori obyektning to'liq qiymatidan kelib chiqqan holda hisoblanadi:

$$Q = 1\,000\,000\,000 \times 14 / 100 = 140\,000\,000 \text{ so'm.}$$

Xaridor tomonidan amalda to'langan summa:

$$1\,000\,000\,000 - 140\,000\,000 = 860\,000\,000 \text{ so'm.}$$

3. Imtiyoz berishning bevosita natijasi

Bir oy ichida davlatga quyidagi miqdorda sotib olish to'lovlari kelib tushdi:

$$860\,000\,000 \text{ so'm.}$$

Bunda xaridorga amalda berilgan imtiyoz miqdori quyidagini tashkil etdi:

$$Q = 140\,000\,000 \text{ so'm.}$$

Byudjet samaradorligini keyingi hisob-kitob qilishda aynan chegirma summasi — 140 000 000 so'm qo'llaniladi.

Quyidagilarni Q sifatida qabul qilish mumkin emas:

obyektning to'liq qiymati — 1 000 000 000 so'm;

amalda kiritilgan summa — 860 000 000 so'm;

xaridor tomonidan obyektga kiritilgan investitsiyalar summasi;

modernizatsiya amalga oshirilgandan keyin obyektning kelgusidagi bozor qiymati.

4. Iqtisodiy samaradorlik — Siqt ni hisoblash

Faraz qilaylik, oldi-sotdi shartnomasi, investitsiya dasturi yoki reja-jadvalda ikkita iqtisodiy ko'rsatkich nazarda tutilgan.

№	Iqtisodiy ko'rsatkich	Reja	Amal	Amalning rejaga nisbatini hisoblash
1	Obyektning modernizatsiya qilishga kiritiladigan investitsiyalar	400 000 000 so'm	380 000 000 so'm	$380\,000\,000 / 400\,000\,000 = 0,95$
2	Bir yil davomida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	1 200 000 000 so'm	1 080 000 000 so'm	$1\,080\,000\,000 / 1\,200\,000\,000 = 0,90$

Ko'rsatkichlarning bajarilish koeffitsiyentlarini aniqlaymiz:

$$r_1 = 380\,000\,000 / 400\,000\,000 = 0,95;$$

$$r_2 = 1\,080\,000\,000 / 1\,200\,000\,000 = 0,90.$$

Iqtisodiy samaradorlik:

$$Siqt = (r_1 + r_2) / N;$$

$$Siqt = (0,95 + 0,90) / 2 = 0,925.$$

Natija

$$Siqt = 0,925.$$

Bu nazarda tutilgan iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtacha 92,5 foizga bajarilganligini anglatadi.

5. Byudjet samaradorligi — Sb ni hisoblash

Quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$Sb = (Bt - Bt-1) / Q.$$

Faraz qilaylik, tadbirkorlik subyektining byudjetga to'lovlari quyidagicha o'zgargan:

Ko'rsatkich	Qiymati
Avvalgi davrda byudjetga to'lovlar — Bt-1	80 000 000 so'm
Hisobot davrida byudjetga to'lovlar — Bt	230 000 000 so'm
Byudjet tushumlarining o'sishi	230 000 000 - 80 000 000 = 150 000 000 so'm
Berilgan chegirma miqdori — Q	140 000 000 so'm

Qiymatlarni formulaga qo'yamiz:

$$Sb = (230 000 000 - 80 000 000) / 140 000 000;$$

$$Sb = 150 000 000 / 140 000 000 = 1,071.$$

Metodikaga muvofiq, agar hisoblangan Sb qiymati 1 dan yuqori bo'lsa, keyingi hisob-kitoblar uchun quyidagi qiymat qabul qilinadi:

$$Sb = 1.$$

Nima uchun cheklov qo'llaniladi

Byudjetga to'lovlarning o'sishi berilgan imtiyoz miqdoridan quyidagi summaga ortiq bo'ldi:

$$150 000 000 - 140 000 000 = 10 000 000 \text{ so'm.}$$

Biroq ushbu ortiqcha summa iqtisodiy yoki ijtimoiy majburiyatlarning ehtimoliy bajarilmasligini sun'iy ravishda kompensatsiya qilmasligi kerak. Shu sababli byudjet samaradorligining eng yuqori qiymati 1 bilan cheklanadi.

Natija

$$S_b = 1.$$

Bu byudjet tushumlarining o'sishi berilgan chegirma miqdorini to'liq kompensatsiya qilganligini anglatadi.

6. Ijtimoiy samaradorlik — Sijt ni hisoblash

Faraz qilaylik, shartnoma yoki dasturda ikkita ijtimoiy majburiyat nazarda tutilgan.

№	Ijtimoiy ko'rsatkich	Reja	Amal	Hisob-kitob
1	Yangi ish o'rinlarini yaratish	8 ta ish o'rni	8 ta ish o'rni	$\min(8 / 8; 1) = 1$
2	Xodimlarni kasbga o'qitish	6 nafar xodim	5 nafar xodim	$\min(5 / 6; 1) = 0,833$

Ijtimoiy samaradorlik:

$$Sijt = (q_1 + q_2) / M;$$

$$Sijt = (1 + 0,833) / 2 = 0,917.$$

Natija

$$Sijt = 0,917.$$

Bu ijtimoiy majburiyatlar o'rtacha 91,7 foizga bajarilganligini anglatadi.

7. Umumlashtirilgan samaradorlik koeffitsiyenti — Ks ni aniqlash

Quyidagi formuladan foydalaniladi:

$$K_s = (Sijt + S_b + Siqt) / 3.$$

Qiymatlarni formulaga qo'yamiz:

$$K_s = (0,925 + 1 + 0,917) / 3;$$

$$K_s = 2,842 / 3 = 0,947.$$

Yakuniy xulosa

$$K_s = 0,947.$$

Ushbu qiymat quyidagi oraliqda joylashgan:

$$0,7 \leq K_s < 1.$$

Shu sababli xaridorga berilgan chegirma samarali deb e'tirof etiladi.

140 000 000 so'm miqdoridagi chegirmaning berilishi quyidagi natijalarga erishish imkonini berdi:

bir oy ichida 860 000 000 so'm miqdorida sotib olish to'lovlarini olish;

WOT4334

WOT4334

WOT4334

WOT4334

iqtisodiy ko‘rsatkichlarning 92,5 foizga bajarilishini ta’minlash;
tadbirkorlik subyektining byudjetga to‘lovlarini 150 000 000 so‘mga oshirish;
byudjet tushumlarining o‘sishi hisobiga berilgan imtiyoz miqdorini to‘liq kompensatsiya qilish;
ijtimoiy ko‘rsatkichlarning 91,7 foizga bajarilishini ta’minlash.

Samaradorlikni yakuniy baholash shkalasi

Ikkala misol bo‘yicha yakuniy xulosa quyidagi shkala asosida shakllantiriladi:

Umumlashtirilgan samaradorlik koeffitsiyenti — Ks qiymati	Samaradorlik bahosi
Ks = 1	yuqori samaradorlik
$0,7 \leq Ks < 1$	samarali qo‘llab-quvvatlash chorasi
$0,5 \leq Ks < 0,7$	o‘rtacha samaradorlik
Ks < 0,5	samarasiz qo‘llab-quvvatlash chorasi

WOT4334

WOT4334

ILOVA. QO'SHIMCHA IMTIYOZ VA PREFERENSIYALARNI HISOBLASHNING BATAFSIL MISOLLARI

Misollar shartli bo'lib, algoritmlarni amalda qo'llash uchun mo'ljallangan. Reja ko'rsatkichlari faqat shartnoma, kelishuv, dastur, reja-jadval yoki muayyan qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etish shartlari belgilangan boshqa hujjatda nazarda tutilgan taqdirda hisob-kitobga kiritiladi.

Misol 3. Qoraqalpog'iston Respublikasi yoki Xorazm viloyatida obyekt uchun to'lovni muddatidan oldin amalga oshirganda 25 foizlik chegirma

Tadbirkorlik subyekti auksionda davlat ko'chmas mulk obyektini sotib oldi. PF-70-son Farmonning 6-ilovasiga muvofiq, belgilangan hududiy va muddat shartlari bajarilganda xaridorga uch oy ichida to'liq to'lov amalga oshirilgan taqdirda 25 foiz miqdorida chegirma beriladi.

1. Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rsatkich	Qiymati
Chegirma qo'llanilgunga qadar obyektning shartnoma bo'yicha qiymati	800 000 000 so'm
Chegirma stavkasi	25%
To'liq to'lov muddati	uch oy ichida
Hisobot davri	bir yil

2. Q ni aniqlash

$$Q = 800\,000\,000 \times 25 / 100 = 200\,000\,000 \text{ so'm}$$

$$\text{To'lov summasi} = 800\,000\,000 - 200\,000\,000 = 600\,000\,000 \text{ so'm}$$

3. Bevosita natija:

davlat uch oy ichida 600 000 000 so'm oldi. Sb ni hisoblash uchun $Q = 200\,000\,000$ so'm miqdoridagi chegirma summasidan foydalaniladi.

4. Iqtisodiy samaradorlik - Siqt ni hisoblash

Iqtisodiy ko'rsatkich	Reja	Amal	Hisob-kitob
Ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi	1 000 000 000 so'm	900 000 000 so'm	$900\,000\,000 / 1\,000\,000 = 0,900$
Obyektga kiritilgan investitsiyalar	300 000 000 so'm	300 000 000 so'm	$300\,000\,000 / 300\,000\,000 = 1,000$

$$\text{Siqt} = (0,900 + 1,000) / 2 = 0,950$$

Natija: Siqt = 0,950.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtacha 95,0 foizga bajarildi.

5. Moliyaviy (byudjet) samaradorligi - Sb ni hisoblash

Ko'rsatkich	Qiymati
Avvalgi davrda byudjetga to'lovlar - Bt-1	80 000 000 so'm
Hisobot davrida byudjetga to'lovlar - Bt	240 000 000 so'm
Byudjet tushumlarining o'sishi	$240\ 000\ 000 - 80\ 000\ 000 = 160\ 000\ 000$ so'm
Qo'llab-quvvatlash chorasining miqdori - Q	200 000 000 so'm

$$S_b = (240\ 000\ 000 - 80\ 000\ 000) / 200\ 000\ 000 = 0,800$$

Yakuniy hisob-kitob uchun $S_b = 0,800$ qabul qilinadi.

6. Ijtimoiy samaradorlik - Sijt ni hisoblash

Ijtimoiy ko'rsatkich	Reja	Amal	Hisob-kitob
Yangi ish o'rinlarini yaratish	12 ta ish o'rni	10 ta ish o'rni	$\min(10 / 12; 1) = 0,833$
Xodimlarni o'qitish	6 nafar	6 nafar	$\min(6 / 6; 1) = 1,000$

$$S_{ijt} = (0,833 + 1,000) / 2 = 0,917$$

Natija: $S_{ijt} = 0,917$.

Ijtimoiy ko'rsatkichlar o'rtacha 91,7 foizga bajarildi.

7. Yakuniy koeffitsiyent - Ks ni aniqlash

$$K_s = (0,950 + 0,800 + 0,917) / 3 = 0,889$$

Yakuniy xulosa: $K_s = 0,889$.

Qo'llab-quvvatlash chorasi samarali deb e'tirof etiladi.

Misol 4. Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti uchun obyektning baholangan qiymatining 50 foizi bo'yicha xususiylashtirish

Tuman hokimligining bo'sh turgan obyekti tadbirkorlik subyektiga davlat-xususiy sheriklik doirasida nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotini tashkil etish uchun berildi. Kelishuv shartlari uch yil davomida bajarilgandan so'ng obyekt DXSH kelishuvi imzolangan paytda belgilangan baholangan qiymatning 50 foizi bo'yicha, besh yil davomida to'lash sharti bilan xususiylashtiriladi.

1. Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rsatkich	Qiymati
DXSH kelishuvi tuzilgan sanadagi obyektning baholangan qiymati	1 200 000 000 so'm
To'lanishi lozim bo'lgan qiymat ulushi	50%
To'lov muddati	besh yil
Hisobot davri	bir yil

2. Q ni aniqlash

Xususiylashtirish narxi = $1\,200\,000\,000 \times 50 / 100 = 600\,000\,000$ so'm

Qnarx = $1\,200\,000\,000 - 600\,000\,000 = 600\,000\,000$ so'm

Q tarkibiga aynan 600 000 000 so'm miqdoridagi narx imtiyozi kiritiladi. Bo'lib-bo'lib to'lash summasi avtomatik ravishda qo'shilmaydi.

Bo'lib-bo'lib to'lashning moliyaviy samarasi faqat foizlar hisoblanmasligi hujjatlar bilan tasdiqlangan taqdirda alohida hisoblanadi.

3. Qo'llab-quvvatlash chorasini taqdim etishning bevosita natijasi

Nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti avval davlat-xususiy sheriklik doirasida foydalanilgan obyektни 600 000 000 so'mga sotib olish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Berilgan narx imtiyozining miqdori 600 000 000 so'mni tashkil etdi.

Xususiylashtirish qiymatini to'lash to'lovlar jadvaliga muvofiq besh yilga taqsimlanadi.

Baholashda qo'shimcha ravishda quyidagilar o'rganiladi:

obyektdan maqsadli foydalanishni saqlab qolish;

nodavlat maktabgacha ta'lim tashkiloti faoliyatini davom ettirish;

to'lovlar jadvaliga rioya etish;

muddati o'tgan qarzdorlikning mavjud emasligi;

davlat-xususiy sheriklik kelishuvi shartlarining bajarilishi;

nazarda tutilgan iqtisodiy va ijtimoiy ko'rsatkichlarga erishish.

4. Iqtisodiy samaradorlik - Siqt ni hisoblash

Iqtisodiy ko'rsatkich	Reja	Amal	Hisob-kitob
Maktabgacha ta'lim tashkilotidagi o'rinlar soni	200 ta o'rin	180 ta o'rin	$180 / 200 = 0,900$
Obyektни jihzlashga kiritilgan investitsiyalar	400 000 000 so'm	360 000 000 so'm	$360\,000\,000 / 400\,000\,000 = 0,900$

Siqt = $(0,900 + 0,900) / 2 = 0,900$

Natija: Siqt = 0,900.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar o'rtacha 90,0 foizga bajarildi.

5. Moliyaviy (byudjet) samaradorligi - Sb ni hisoblash

Ko'rsatkich	Qiymati
Avvalgi davrda byudjetga to'lovlar - Bt-1	120 000 000 so'm
Hisobot davrida byudjetga to'lovlar - Bt	270 000 000 so'm
Byudjet tushumlarining o'sishi	$270\ 000\ 000 - 120\ 000\ 000 = 150\ 000\ 000$ so'm
Qo'llab-quvvatlash chorasining miqdori - Q	600 000 000 so'm

$$Sb = (270\ 000\ 000 - 120\ 000\ 000) / 600\ 000\ 000 = 0,250$$

Yakuniy hisob-kitob uchun Sb = 0,250 qabul qilinadi.

6. Ijtimoiy samaradorlik - Sijt ni hisoblash

Ijtimoiy ko'rsatkich	Reja	Amal	Hisob-kitob
Yangi ish o'rinlarini yaratish	25 ta ish o'rni	20 ta ish o'rni	$\min(20 / 25; 1) = 0,800$
Bolalarni xizmatlar bilan qamrab olish	200 nafar bola	180 nafar bola	$\min(180 / 200; 1) = 0,900$

$$Sijt = (0,800 + 0,900) / 2 = 0,850$$

Natija: Sijt = 0,850.

Ijtimoiy ko'rsatkichlar o'rtacha 85,0 foizga bajarildi.

7. Yakuniy koeffitsiyent - Ks ni aniqlash

$$Ks = (0,900 + 0,250 + 0,850) / 3 = 0,667$$

Yakuniy xulosa: **Ks = 0,667.**

Qo'llab-quvvatlash chorasi o'rtacha samarador deb e'tirof etiladi.

Misol 5. Davlat obyekti bo'yicha to'lovlarni foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash

"20 ming tadbirkor - 500 ming malakali mutaxassis" dasturi ishtirokchisi davlat ko'chmas mulk obyektini uch yilga foizsiz bo'lib-bo'lib to'lash sharti bilan sotib oldi. Imtiyozning puldagi miqdori qarzdorlik qoldig'iga Markaziy bankning asosiy stavkasi bo'yicha hisoblanishi mumkin bo'lgan foizlar summasiga teng.

1. Dastlabki ma'lumotlar

Ko'rsatkich	Qiymati
Obyekt qiymati	1 000 000 000 so'm

Ko'rsatkich	Qiymati
Boshlang'ich to'lov	400 000 000 so'm
Qarzdorlik qoldig'i	600 000 000 so'm
Asosiy qarzni so'ndirish jadvali	har yili 200 000 000 so'mdan
Markaziy bankning asosiy stavkasi	14% yillik
Amaldagi foiz stavkasi	0%

2. Qfoiz ni aniqlash

Yil	Yil boshidagi qoldiq	14 foizlik bo'yicha foiz stavka	Amalda hisoblangan	Imtiyoz
1-yil	600 000 000	84 000 000	0	84 000 000
2-yil	400 000 000	56 000 000	0	56 000 000
3-yil	200 000 000	28 000 000	0	28 000 000

Butun muddat uchun ma'lumot tariqasida:

$$84\,000\,000 + 56\,000\,000 + 28\,000\,000 = 168\,000\,000 \text{ so'm}$$

Birinchi hisobot yili uchun baholashda:

